

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi**

**Buxoro irrigatsiya va melioratsiya instituti Buxoro filiali**

**«Gidromelioratsiya» fakulteti**

**«Yer tuzish va yer kadastrini» bakalavriatura ta'lim yo'nalishi**

**Yer tuzish va yer kadastrini kafedrasini**

**Himoyaga ruxsat etilsin:**

**kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_ v.b. Asatov.S.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

**Bakalavr darajasini olish uchun**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Buxoro viloyati Buxoro tumani O`rta Osiyo massivi fermer xo`jaliklari hududida yer kadastrini yuritish” mavzusidagi**

**Bajaruvchi**

**M.Sultonova**

**Rahbar**

**B.f.d., professor S.Bo`riyev**

**BUXORO – 2014**

## MUNDARIJA

T/r.	Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy qismlari	Betlar
1.	Topshiriq va taqvimiy reja	
2.	Ishchi dastur	
3.	Kirish	
4.	<b>I bob.</b> «O`rta Osiyo» massivi to`g`risida umumiy ma`lumotlar	
5.	<b>II bob.</b> Yer uchastkalariga bo`lgan huquqlarni ro`yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning uslubiy masalalari	
6.	<b>III bob.</b> «O`rta Osiyo» massivida yerdan foydalanuvchilarni ro`yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish.	
7.	Xulosa	
8.	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	
9.	Ilovalar	

**Buxoro irrigatsiya va melioratsiya institute Buxoro filiali**

(Oliy o'quv yurti nomi)

**«Gidromelioratsiya» fakulteti**

**«Yer tuzish va yer kadastrini» bakalavriatura ta'lim yo'nalishi**

**Yer tuzish va yer kadastrini kafedrasini**

**TASDIQLAYMAN:**

“Er tuzish va er kadastrini” kafedrasini

\_\_\_\_\_ mudiri v.b. S.Asatov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_y

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba \_\_\_\_\_ Sultonova Matluba \_\_\_\_\_

1. Bitiruv ishining mavzusi **“*Buxoro viloyati Buxoro tumani O`rta Osiyo massivi fermer xo`jaliklari hududida yer kadastrini yuritish*”**

Filial bo`yicha 2013 yil « 19 » 12 dagi 325 A/F- son buyruq bilan tasdiqlangan. «30» \_oktyabr 2013 y \_2\_ sonli kafedra majlisida ma`qullangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati « 05 » \_06\_ 2014 y. \_\_\_\_\_

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar Massiv to`g`risida umumiy ma`lumot. Massivdagi yer turlarining amaldagi joylashuv tarxi. Maydonlar qaydnomasi. Yerdan foydalanuvchilarning amaldagi joylashuv tarxi. «O`rta Osiyo» massivida yer uchastkalarini ro`yxatga olish holati to`g`risidagi ma`lumotlar.

4. Hisoblash - tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yxati)

1-BOB. Massivining tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarining tavsifi

2-BOB. Yer uchastkalariga bo`lgan xuquqlarni ro`yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning uslubiy masalalari

3-BOB. «O`rta Osiyo»massivida yerdan foydalanuvchilarni ro`yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish.

Xulosa. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati. Ilovalar

5. CHizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

1) «O`rta Osiyo» massivida yer turlarining amaldagi joylashuv tarxi

2) «O`rta Osiyo» massiini raqamlangan kadastr xaritasi.

3) Yer uchastkalarini ro'yxatga olish namunalari (shakllar)

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslaxatchilar.

№	Bo'lim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchilar f.i.sh	Imzo, sana	
1				
2	Hayot faoliyati xavfsizligi			

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi.

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati			Muddati,
		Sana	%	jami	
1.	<i>Ishchi dasturni tuzish va kirish qismini yozish</i>	20.12.2013y	1.6	1.6	
1.	<i>1-BOB. Massivining tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarining tavsifini yozish</i>	3.01.2014y	3.2	4.8	
2.	<i>«O`rta Osiyo» massivida yer turlarining amaldagi joylashuv tarxini chizish</i>	19.01.2014y	8.2	13.0	
3.	<i>2-BOB. Yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning uslubiy masalalarini yozish</i>	2.02.2014 y	4.9	17.8	

4.	<i>3-BOB»O`rta Osiyo»massivida yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish.</i>	23.02.2014y	4.9	22.6	
5.	<i>Kadastr raqamlarini shakllantirish haritasini chizish</i>	3.03.2014y	21.7	44.3	
6.	<i>Xulosa yozish</i>	20.04.2014 y	3.2	83.7	
7.	<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish</i>	18.05.2014 y	3.2	86.9	
8.	<i>Ilovalarni tayyorlash</i>	28.05.2014 y	3.2	90.3	
9.	<i>Malakaviy bitiruv ishini rasmiylashtirish va</i>	29.05.2014 y	1.6	91.9	
10.	<i>Ximoyaga tayyorgarlik ko'rish</i>	5.06.2014 y	8.1	100.0	
	<b>Jami</b>		100		

Bitiruv ishi rahbari

B.f.d., professor S.Bo`riyev

Topshiriqni bajarishga oldim \_\_\_\_\_ M,Sultonova

Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_ 201 yil

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi**  
**Buxoro irrigatsiya va melioratsiya instituti Buxoro filiali**  
**«Gidromelioratsiya» fakulteti**  
**«Yer tuzish va yer kadastrini» bakalavriatura ta'lim yo'nalishi**  
**Yer tuzish va yer kadastrini kafedrasida**

**«TASDIQLAYMAN»**  
\_\_\_\_\_ **Asatov.S.**  
«\_\_» \_\_\_\_\_ **201 yil**

**“Buxoro viloyati Buxoro tumani O`rta Osiyo massivi fermer**  
**xo`jaliklari hududida yer kadastrini yuritish”**  
**mavzusida**

## **I S H C H I D A S T U R I**

**Bajaruvchi**

**M.Sultonova**

**Rahbar**

**B.f.d., professor S.Bo`riyev**

**BUXORO – 2014**

## **Kirish**

1. Bozor islohotlari sharoitida yer uchastkalarini ro'yxatga olish ishlarining maqsadi va vazifalari.
2. Yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish kadastr raqamlarini shakllantirishning ahamiyati.

### **1-BOB. Massivning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarining tavsifini yozish**

- 1.1. Massivning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari
- 1.2. Massiv yer turlari va ulardan foydalanish tavsifi
- 1.3. Aholi punktlari, yo'l va sug'orish tarmoqlarining tavsifi.
- 1.4. Massiv ishlab chiqarish faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari.

### **2-BOB. Yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning uslubiy masalalarini yozish**

- 2.1 Davlat yer kadastrining turlari, tamoyillari va hujjatlari
- 2.2 Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishning nazariy asoslari
- 2.3 Kadastr raqamlarini shakllantirish uslubiyati

### **3-BOB. «O`rta Osiyo» massivida yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish.**

- 3.1 «O`rta Osiyo» massivida yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatga olish.
- 3.2 Massivda kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi.
- 3.3 «O`rta Osiyo» massivi hududida mavjud fermer xo'jaliklarida kadastr raqamlarini shakllantirish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING  
MAMLAKATIMIZNI 2013-YILDA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH  
YAKUNLARI VA 2014-YILGA MO'ljALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG  
MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN VAZIRLAR  
MAHKAMASINING MAJLISIDAGI MA'RUZASI

18.01.2014



Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Biz bugun 2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Ruxsatingiz bilan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga alohida to'xtalmoqchiman.

Avvalo, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish

tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

## **KIRISH**

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yer kadastrini tarkibiy qismi bo'lgan yer hisobi ishlarini bajarish va yer uchastkalariga kadastr raqamini berishdan asosiy maqsad mavjud yer resurslari to'g'risidagi aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishdir. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 15-moddasiga muvofiq, davlat yer kadastr yelarning tabiiy, xo'jalik va xuquqiy tartibi to'g'risidagi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati to'g'risidagi yer uchastkalarining joylashgan o'рни va o'lchamlari to'g'risidagi, yerlarni yer

uchastkalari mulkdorlariga yer egalariga va yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va xujjatlar tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrini yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muxofaza qilish, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to'lanadigan xaq miqdorlarini asoslash massiv faoliyatiga baxo berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangandir. Davlat yer hisobi muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning ma'lumotlaridan iqtisodiyot tarmoqlarining turli-tuman masalalarni hal qilishda, jumladan yer solig'i, yer maydonlariga ijara haqi miqdorlarini belgilashda, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorliklarini rejalashtirishda, yer tuzishda va umuman yerdan foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan barcha masalalarni hal qilishda keng qo'llaniladi.

Yer hisobi ishlarning natijalari xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasini tuzishda, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va unga bo'lgan ehtiyojini aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Yer hisobi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda juda katta ahamiyatga ega. eng birinchi galda yer hisobi juda aniq bo'lishi zarur. Buning uchun yer hisobini yer toifalariga, jamoa, shirkat, fermer xo'jaliklariga, yer turlariga, jumladan, haydalma yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar, yaylovlar va boshqalarga bo'lingan holda olib borish talab qilinadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda «O'rta Osiyo»massiv xududidagi yer resurslari to'g'risidagi turli-tuman ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda matematika, statistika, geodeziya, fotogrammetriya va kartografiya uslublaridan foydalanildi.

Shu nuqtai nazardan xam yer hisobotini doimiy yuritib borish, unda mavjud yerlar kimga tegishliligi, undan qay tarzda foydalanilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar to'plab borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Yer hisoboti (balansi) yer hisobi asosida tuziladi. Mavzuga oid tuzilgan ishchi dasturga asosan bitiruv malakaviy ishida «O'rta Osiyo»massiv xududida joylashgan barcha yerdan

foydalanuvchilarning yer uchastkalarini ro'yxatga olish ishlari bajarildi. Jumladan, tomorqa uchastkalari, tashkilot, korxonalar, muassasalar, fermer va dehqon xo'jaliklari bo'yicha har bir yer uchastkasiga Nizomga asosan kadastr raqamlari aniqlandi.

# **1-BOB MASSIVNING TABIIY, IJTIMOIIY VA IQTISODIY SHAROITLARINING TAVSIFI**

## **1.1. Massivning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari**

### **Xo`jalik haqida umumiy ma`lumotlar**

“O`rta Osiyo” massiv hududi Buxoro viloyati Buxoro tumanining Shimoliy g`arb qismida joylashgan.

Xo`jalik umumiy yer maydoni 5066 gektarni tashkil etib, baholangan 22 ta fermer xo`jaligining sug`oriladigan yer maydoni 2281,0 gektar. Bu yerlardan qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatlari mavjud.

### **Iqlimi**

Xo`jalik hududlari o`zining geografik joylashish o`rniga ko`ra, Turon subtropik iqlim mintaqasining O`rta Osiyo quruq kontinental iqlim oblasti (provintsiyasi)ga kiradi va yarim cho`l zonasiga mansub o`ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bu hudud iqlim sharoitlarini uning janubiy okean va dengizlardan uzoqligi, cho`llar yaqinligi belgilaydi. Hududning umumiy iqlim sharoiti bir omil: cho`l iqlimi va chala cho`llari iqlimi ta`sirida shakllanadi. Iqlimning umumiy xususiyatlari tekislik va Cho`l oldi hududlarida uning keskin kontinental quruqligi, janubiy garbda Cho`l va chalaCho`l erlarida havo haroratining kutarishi, yog`inlar miqdorining kamayib borishi, quyosh radiatsiyasi, kunlik, oylik, yillik va fasllarda haroratning katta oraliqda tebranib turishi va atmosfera yog`inlarining yil davomida notekis taqsimlanishida o`z aksini topadi.

Cho`l qismida ayozsiz davrning davomiyligi 210-220 kunni tashkil kiladi. effektiv faol temperatura yigindisi 4000-4400 <sup>0</sup>, effektiv foydali temperatura yigindisi esa 2100-2300 <sup>0</sup>S.

Ko`p yillik o`rtacha temperatura +16 <sup>0</sup>S.

Ilk sovuq urish davri oktyabrning oxirgi 10 kunligiga tugri keladi. Ko`p yillik ma`lumotlarga karaganda oxirgi sovuq urish davri mart oyi oxiriga, hatto aprel oyi o`rtalariga ham to`g`ri keladi.

Iyuldagi urtacha temperatura  $+27,8^{\circ}$  S.  $+10^{\circ}$  S xaroratdan yukori davr 28-martdan 28- oktyabrgacha 210 kunni tashkil kiladi.

Eng sovuq oy yanvarda -  $1,0^{\circ}$  ni tashkil etadi, absolyut minimum harorat  $27-29^{\circ}$  gacha pasayadi.

Bahorgi kuchli yomg`irlar havo haroratini pasaytirib, tuproq qatqalog`ini sodir etadi, ayrim yillarda ekin maydonlarini buzib qayta ekishga to`g`ri keladi.

Yillik yog`inlarning o`rtacha miqdori katta oraliqda tebranib 280-370 mm ni tashkil etadi, uning maksimal miqdori qish-bahor oylariga to`g`ri keladi, yoz oylarida yog`inlar deyarli bo`lmaydi. Qor qoplami beqaror bo`lib, uning qalinligi odatda 3-10 sm ni tashkil etadi, ayrim sovuq yillarda uning qalinligi 25-35 sm gacha etadi. Havoning o`rtacha yillik nisbiy namligi 50-55% ko`rsatkichlarida kuzatiladi, qish oylarida 75-80% gacha ko`tarilib, yoz oylarida 25-30% gacha pasayadi, bu davrda etishmagan namlik miqdorini sug`orish orqali to`ldiriladi.

Bu xududlar daryo terrasalarida 100-150 m, balandlikda joylashgan.

Yog`inlar miqdorining kam bo`lishi va yoz oylaridagi yuqori harorat tuproqdan yuqori bug`lanishni sodir etadi. Bug`lanish 1280-1470 mm ni, atmosfera yog`inlari 320-363 mm ni tashkil etgani holda, namlik tanqisligi (bug`lanish minus yog`inlar) 960-1107 mm ga teng ko`rsatkichlarda kuzatiladi. SHamolning o`rtacha tezligi 1,5-3,4 m/sek ga teng bo`lib, uning maksimal tezligi 22-28 m/sek. ni tashkil etadi.

### **Rel`efi**

Jondor tuman “O`rta Osiyo” massivi Zarafshon daryosi vodiysida joylashgan. Xo`jalikda takir utloki sugorma dexkonchilik tuproklar tarkalgan xududlarda rivojlangan.

Xududda asosan takir utloki tuproklardan iborat. Erlarning asosiy qismi paxta va galla maydonlar tashkil kiladi. Grunt suvlarining sathi rel`ef tuzilishlariga bog`liq holda 1,5-2,5 metrdan 2,5-3 metrgacha va Zarafshon daryosi atrofidagi erlarda 0,5-1, metrgacha tebranib turadi, tuproq hosil bo`lish jarayonlariga turlicha ta`sir ko`rsatadi.

## **Geomorfologik-litologik va gidrogeologik sharoitlari**

Xo`jalik birgina geomorfologik rayondan iborat. Xo`jalik qismi asosan tekislik erlardan iborat, Geologik tuzilishi va rel'efiga, iqlim sharoiti va tuproq-o`simlik dunyosiga ko`ra keskin farq qilmaydi.

Xududdagi tekisliklar qadimgi to`rtlamchi davrning turli murakkab yotqiziqlaridan tashkil topgan. Hudud erlari dengiz sathidan 100-150 m balandlikda joylashgan. Xudud turli darajada sho`rlangan allyuvial jinslaridan iborat.

Xo`jalikda takir utloki tuproqlar tarqalgan bo`lib, ularning chuqur qatlamlari to`rtlamchi davr cho`kindi, chirindili yotqiziqlar bilan qoplangan. Xo`jalik xududida allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan Cho`l tekisliklari geomorfologik rayoniga ajratilgan.

Xo`jalik xududida murakkab geologik, geomorfologik-litologik, tuproq-iqlim sharoitlari regionda o`ta murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat er usti va er osti suvlari rejimi va balansi ko`rsatkichlarida o`z aksini topgan.

Xo`jalik tabiiy va sun`iy kam zovurlashgan tekislik qismi asosiy maydonlarida erlarni yuqori me`yorlarda sug`orish va boshqa bir qator omillar grunt suvlarining er yuzasiga ko`tarilishiga imkon yaratmoqda, bu holat o`z navbatida tuproqda tuz to`planish va qayta sho`rlanish jarayonlari kelib chiqmoqda. Er osti suvlari sathining davriy ravishda tebranib turishi yil fasllari bo`yicha o`zgarib, hududlarda murakkab gidrogeologik jarayonni keltirib chiqargan. Xo`jalikda tutash erlarida er osti suvlarining sathi 2-2,5 m va undan ortiq chuqurlikda kuzatilsa, tekislik qismining asosiy maydonlarida 1,5-2,0 metr atrofida kuzatilsa, Ayniqsa, tekislikning botiq, pastqamlik erlarida er osti suvlari oqimi deyarli ta`minlanmagan sharoitda suvda oson eruvchi tuzlar miqdori ortib, tuproqlar va grunt suvlaridagi dastlabki xlorid-sul`fatli sho`rlanish tipi asosan xloridli sho`rlanish ximizmiga aylanib bormoqda.

Grunt suvlarining mineralizatsiya darajasi Xo`jalikning turli qismlarida turlicha ko`rsatkichlarda hududning o`rta qismlarida 2-3 g/l, quyi pastqam erlarda

3-5 g/l va undan ortiq miqdorni tashkil etadi. Jumladan, tuman erlarida grunt suvlarining o`rtacha minerallasgan darajasi 1,5-2 g/l ko`rsatkichlarida qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sug`oriladigan erlarida salbiy meliorativ jarayonlar kuzatilib, gidromorf (o`tloqi) tuproqlar maydoni kengaymoqda, grunt suvlari er yuzasiga yaqinlashib, sho`rlanish jarayonlari kuchayib bormoqda, ularni oldini olish va salbiy jarayonlarni to`xtatish muammosi asosiy dolzarb masala bo`lib qolmoqda.

### **Tuproq hosil qiluvchi ona jinslar**

Xo`jalik hududida turli geologik davrlarda yotqizilgan turli xildagi jinslardan iborat bo`lib, tuproq hosil qiluvchi ona jinslari kam (kuchsiz) allyuvial jinslardan tashkil topgan. Xo`jalikning tekislik janubiy-g`arb va janubiy-sharq tomoniga qarab qum va tuproq aralashgan mayin jinsli yotqiziqlar o`rin olib, ba`zan ular ustini allyuvial keltirilmalar qoplagan. Hududning asosiy qismida tuproq hosil qiluvchi ona jinslar usti urta, qumloqli va qumli qatlamlari bo`lgan qumoqlar, allyuvial yotqiziqlarning qum aralashgan qatlamlari yotadi.

Xulosa qilib aytganda, Xo`jalik hududida turli tuproq qoplamalari uchraydi, bu eng avvalo hududning ancha pastlikda joylashganligi, er yuzasining murakkab tuzilganligi, tuproq hosil qiluvchi jinslarning har xilligi, iqlim sharoiti, o`simliklar dunyosining xarakteri va insonning faoliyati bilan bevosita bog`liqdir.

### **Tuproqlari**

Xo`jalik sug`oriladigan er maydonlarining tuproqlari: subtropik Cho`l zonasi, allyuvial yotqiziqlaridan tashkil topgan Zarafshon voxasi tekisliklari geomorfologik rayonida tarqalib turli litologik, gidrogeologik va tuproq-iqlim sharoitlarida rivojlangan.

Xo`jalik tuproqlari subtropik Cho`l tuproqlar zonasida tarqalganligi bois, asosan sug`oriladigan takir o`tloqi tuproqlardan iborat bo`lib, bu tuproqlar tarqalgan hududlar uchun o`ziga xos xususiyatlar – shamol eroziyasi hamda sho`rlanish jarayonlariga moyilligi, chirindi (gumus) va boshqa ozuqa moddalarining kamligi, ularning harakatchan shakllari bilan kam ta`minlanganligi,

grunt suvlarining sathi nisbatan yakinrok, kuchli minerallashgan, tuproqlari asosan o`rtacha va engil qumoqli mexanik tarkibdan iborat.

Xo`jalik sug`oriladigan takir utloki **tuproqlari** urta va engil qumoqli qatlamlari bo`lgan engil mexanik tarkibdan iborat, fizik loy fraksiyalari ( $<0,01$  mm) miqdori keng oraliqda - 22,1-25,4% ko`rsatkichlarda kuzatiladi.

Tuproqning ustki haydalma qatlamidagi gumus miqdori o`rtacha 0,82-1,00% ni, harakatchan fosfor o`rtacha – 12,5-15,8 va almashinuvchi kaliy – 127-219 mg/kg ni tashkil etadi. Mazkur Cho`lli utloki allyuvial tuproqlari gumus bilan kam, harakatchan fosfor miqdoriga ko`ra kam va urta, almashinuvchi kaliy ko`rsatkichlariga ko`ra esa kam, ba`zan o`rtacha ta`minlangan tuproqlar guruhini tashkil etadi.

Suvli so`rim natijalariga ko`ra takir utloki tuproqlari kam shurlangan, urta sho`rlangan va kuchli shurlangan ayirmalardan iborat. Kam shurlangan urta sho`rlangan sug`oriladigan takir utloki tuproqlarda suvda oson eruvchi tuzlarning umumiy miqdori kam shurlangan 0,256-0,264%, o`rtacha 0,576-0,766%; kuchli sho`rlangan tuproqlarda – 1,560-1,630% ni tashkil etadi. SHO`rlanish ximizmiga ko`ra xlarid-sulfatli sho`rlanish tiplaridan iborat

Sug`oriladigan takir **o`tloqi tuproqlari** urta kumokli va engil qumoqli mexanik tarkibdan iborat, fizik loy fraksiyalarining miqdori 27,4-43,5% ni, haydalma qatlamdagi gumus o`rtacha 0,61-0,88% ni tashkil etib, kam ta`minlangan, harakatchan fosfor o`rtacha 10,0-15,8%, almashinuvchi kaliy – 118-205 mg/kg ni tashkil etgani holda kam va urtacha ta`minlangan tuproqlar qatoriga kiradi. Xo`jalikni sug`oriladigan o`tloqi tuproqlari asosan kam, urta va kuchli darajada sho`rlangan.

Tuproq tadqiqot ma`lumotlarining tahlili shuni ko`rsatadiki, Xo`jalik hududidagi sug`oriladigan Cho`lli o`tloqi tuproqlari o`zlarining rel`efi va geomorfologik-litologik tuzilishiga ko`ra, nisbatan murakkab hudud hisoblanib, bu tuproqlarning o`ziga xos xususiyatlari - gumus qatlamining kamligi Ayrim tuproq ayirmalarini hisobga olmaganda harakatchan fosfor va kaliy miqdoriga ko`ra urta ta`minlangan .

### **Sug`oriladigan tuproqlarni baholash.**

Tuproq sifatini baholash – qishloq xo`jaligi ekinlari agrotexnikasi o`rtacha darajada bo`lgandagi tuproq sifatini hamda tabiiy unumdorlik quvvatiga beriladigan qiyosiy baho. Tuproqlar bonitirovkasi ko`p jihatdan ekinlarning hosildorligi bilan bog`liq bo`lgan tuproq xossa va xususiyatlarini hisobga olgan holda bajariladi.

Sug`oriladigan dehqonchilik sharoitida tuproqda kechadigan jarayonlar o`zgaruvchan bo`lib, tuproqning ko`pgina xossalari qisqa vaqt ichida o`zgaradi va turg`un bo`lmay qoladi. SHuning uchun uni baholash nuqtasini tanlanganda kam o`zgaruvchan hamda qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligi bilan yaqin bog`langan xossasi hisobga olinadi.

Tuproq sifatini baholashda tuproqlarning asosiy xossalari va tabiiy sharoitlari: tuproqlarning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, gumus miqdori, sho`rlanish darajasi, eroziyalanganligi, toshliligi, gipsiligi va boshqa tabiiy omillari hisobga olinadi.

Tuproqlarni sifatini baholash yopiq 100-balli shkala bo`yicha o`tkaziladi. eng yaxshi, optimal xossalarga, yuqori mahsuldorlikka ega bo`lgan tuproqlar 100 ball bilan baholanadi, optimal ko`rsatkichlardan chekinish holatlari yuz bergan taqdirda bonitet ballarini hisoblashda pasaytiruvchi koeffitsientlar qo`llaniladi.

Masalan: qishloq xo`jalik ekinini hosilini aniqlash uchun bir ballni hosilga muvofiq qiymatini joyning ball bonitetiga ko`paytiriladi. Bir ballning hosilga to`g`ri keladigan qiymatini aniqlash uchun qishloq xo`jalik ekinini hosili (ts/ga) miqdorini 100 balli (eng unumdor tuproq) ko`rsatkichga bo`linadi (6-jadval).

60 balli tuproqlar uchun g`o`za hosilini hisoblash quyidagicha:

$$60 \times 0,40 = 24 \text{ ts/ga.}$$

59,5 balli tuproqlar uchun makkajo`xori (silosga) hosilini hisoblash quyidagicha:

$$59,5 \times 6,50 = 386,75 \text{ ts/ga.}$$

80 balli tuproqlarda bug`doy hosildorligi:

$$80 \times 0,60 = 48 \text{ ts/ga.}$$

## Eng yaxshi tuproqlarda qishloq xo`jaligi ekinlarining hosildorligi

Ekinlar	Respublikadagi o`rtacha maksimal hosildorlik, ts ga	1 ballning hosilga muvofiq qiymati
Paxta	40	0,40
Bug`doy	60	0,60
Arpa	75	0,75
Beda 2 va 3 yillik	200	2,00
Makkajo`xori donga	80	0,80
Boshoqli donlar sof va qoplama holda	60 25	0,60 0,25
Makkajo`xori silosga	650	6,50
Ildizli oziqabop	950	9,50
Bir yillik o`tlar (ko`k massa)	300	3,00
Oraliq ekinlar (ko`k massa)	250	2,50
Kartoshka	125	1,25
Sabzavotlar	350	3,50

Tuproqlarni agroishlab chiqarish guruhlariga ajratish eng avvalo, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini ilmiy asoslangan tarzda yuritish, agrotexnik va meliorativ tadbirlarni to`g`ri tanlash uchun zarur. Shu boisdan tumang xududidagi bir xil o`xshash meliorativ va agrotexnik tadbirlarni talab etuvchi tuproq ayirmalari muayyan bir agroishlab chiqarish guruhlariga birlashtirildi va shu asosda xo`jalik sug`oriladigan tuproqlari 4ta urtachadan yukori, urtacha ,urtachadan past ayomonrok guruxlarga ajratiladi.

Birinchi guruh (VII-klass) sifat jihatdan urtachadan yukori erlar hisoblanib, bonitet bali 61-70 ballni tashkil etadi. Hududdagi huddi shunday boniteti balli tuproqlarning umumiy maydoni 223,3 gektarni tashkil etadi

Ikkinchi guruh (VI klass)sifat jihatdan urtacha erlar hisoblanib, bonitet bali 51-60 ballni tashkil etadi. Hududdagi huddi shunday boniteti balli tuproqlarning umumiy maydoni 678,39 gektarni tashkil etadi.

Uchinchi guruh (V klass) sifat jihatdan urtachadan past erlar hisoblanib, bonitet bali 41-50 ballni tashkil etadi. Hududdagi huddi shunday boniteti balli tuproqlarning umumiy maydoni 171,06 gektarni tashkil etadi.

Turtinchi guruh (IV klass) sifat jihatdan yomonrok erlar hisoblanib, bonitet bali 31-40 ballni tashkil etadi. Hududdagi huddi shunday boniteti balli tuproqlarning umumiy maydoni 77,25 gektarni tashkil etadi.

Xo`jalik hududida o`rganilgan sug`oriladigan tuproqlarining maydonlari 1150,0 gektar bo`lib, hudud bo`yicha o`rtacha ball boniteti 54 ball bilan baholandi.

### **Xulosa**

Xo`jalik xududida sug`oriladigan er maydonlari subtropik Cho`l tuproqlar mintaqasida joylashib, tabiiy sharoitiga ko`ra, kontinental iqlim zonasiga kiradi. Ya`ni yozi issiq va quruq, qishi sovuq, asosiy atmosfera yog`inlari qish, bahor oylarida tushadi. Xududda yarim gidromorf va gidromorf tuproqlar keng tarqalgan. Sug`oriladigan tuproqlari asosan engil mexanik tarkibga ega bo`lib, ayrim hollarda o`rtacha va o`ir mexanik tarkiblar ham uchraydi. Tuproqlarining meliorativ holati, uning er osti suvlari, ularni minerallasganligi bilan chambarchas bog`liqdir. SHu sababli xo`jalik tuproq qoplami turli darajada sho`rlanganligi va er osti suvlari chuqurligi turlicha minerallasganligi aniqlandi.

Sug`oriladigan takir utloki va utloki botkok tuproqlar, ko`proq suv eroziyalariga uchragan. Bu tuproqlarda mayda tuproq zarrachalari yil davomida davriy sug`orishlar ta`sirida emirilib bormoqda.

Xududlarning tuproq unumdorligi mineral o`g`itlardan samarali va tabaqalashgan holda foydalanishga bog`liq.

Xo`jalik xududidagi sug`oriladigan tuproqlar unumdorligini muhofaza etish va qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni tavsiya etamiz:

1. Ob-havo quruq kelgan yillarda, bahorgi namlab sug`orishni amalga oshirish, davriy tekislash ishlarini o`tkazish, sug`orish suvlaridan tejamli foydalanish imkonini yaratadi.

2. Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida almashlab ekishni joriy etish, ixota daraxtzorlarini barpo etish maqsadga muvofiqdir.

3. O`g`itlar samaradorligini oshirish maqsadida organik o`g`itlarni mineral o`g`itlar bilan kompost holda tayyorlab, qishloq xo`jalik ekinlarini oziqlantirish, organik o`g`itlardan gektariga 25-30 tonnadan solish yuqori samara beradi.

4. Xo`jaliklaridagi kollektor drenajlar tizimini davriy tozalash, ular samaradorligini oshirib er osti suvlari ko`tarilishini oldini oladi.

### **1.2. Massiv yer turlari va ulardan foydalanish tavsifi**

Tuman yer resurslari va davlat kadastri bo`limidan olingan rasmiy ma`lumotlar va materiallarga qaraganda massivi chegarasidagi yerlarning umumiy maydoni 1056,4 gektarni tashkil etadi. Davlat dalolatnomasiga binoan ushbu maydonning 1018,2 gektari massivga doimiy foydalanishga berilgan. Bulardan ko`rinadiki, massiv chegarasidagi 38,0 gektar begona yerdan foydalanuvchilar mavjud. Umuman, massiv yer maydonlarini yer turlari bo`yicha taqsimlanishi tug`risidagi ma`lumotlar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

««O`rta Osiyo»» massivi ,birinchi uchastka yer maydonlarini yer turlari bo`yicha taqsimlanishi

T.r.	Ko`rsatkichlar	Maydoni, ga	Umumiy maydonga nisbatan % hisobida	Qishloq massiv yerlariga nisbatan % hisobida
------	----------------	-------------	-------------------------------------	--

1	2	3	4	5
1	Jami haydalma yerlar	726,5	68,8	88,8
				0,0
	bog'lar	42,19	4,0	5,2
	uzumzorla	0,33		0,0
	tutzorlar	3,5	0,3	0,4
3	O'tloq va yaylovlar	46,8	4,4	5,7
4	Jami qishloq xo'jalik yerlari	819,32	77,6	100,1
5	Tomorqa yerlari			
6	O'rmonzorlar			
7	Terakzorlar			
8	Ihota daraxtzorlari	0,13		
9	Daryo va soyliklar	2,5	0,2	
10	Suv havzalari, ko'llar va boshqa suv bilan band bo'lgan yerlar	0,5	0,0	
11	Ariqlar, zovurlar bilan band bo'lgan yerlar	56,2	5,3	
12	Yo'llar, mollarni haydab o'tish yo'llari	14,3	1,4	
13	Qurilishlar, ko'chalar, hiyobonlar	49,3	4,7	
14	Boshqa yerlar	9,7	0,9	
15	Meliorativ holatdagi yerlar			

16	Massiv biriktirilgan jami yer maydoni	1018,24	96,5	
17	Begona yerdan foydalanuvchilar	38	3,6	
18	Massiv chegarasidagi barcha yerlar	1056,24	100,1	

3-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, massiv umumiy yer maydonlarining 77,6 foizini qishloq xo'jalik yerlari, shundan 68,8 foizini haydalma yerlar, 10,8 foizini esa ko'p yillik daraxtzorlar tashkil etadi. Massivdagi qishloq massiv yerlarining deyarli 88,8 foizini haydalma yerlar tashkil etadi, bog'lar esa 5,2 foizini tashkil etadi xolos. Keyingi yillarda qishloq xonadonlari tomorqa yerlarining kengayganligi sababli bugungi kunga kelib massiv maydonlarining 6,2 foizini tomorqa yerlari tashkil etadi.

YUqorida qayd qilinganidek massiv hududida turli tuman begona yerdan foydalanuvchilar ham joylashgan bo'lib, ularning umumiy yer maydoni 38,0 gektarni tashkil etadi. Bular turli tuman sanoat va transport korxonalarini, ta'lim-tarbiya muassasalari bo'lib, asosan massiv aholisiga xizmat ko'rsatish, ularning turmush madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu begona yerdan foydalanuvchilar egallagan maydonlar to'g'risida ma'lumotlar quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

«O`rta Osiyo» massivi chegarasidagi begona yerdan foydalanuvchilar va ularning yer maydonlari tavsifi

T.r.	Yerdan foydalanuvchilar	Jami yer maydoni	Shundan					
			Hay-dal-ma yer-lar	Ko'p yil-lik daraxtz orlar	O't-loq va yaylo v-lar	Qurili sh-lar	Ariqla r va yo'l-lar	Boshq a yerlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	25 avomobil transport yerlar	2,5				2,5		
2	Kabrsitonlar	1,2						1,2
3	Maktab	2,1				2,1		
4	SP «Kobul Buxoro-tekistl to'qimachi	21,7				21,7		
5	Temir yo'l tarnsporti yerlari	1,2				1,2		
6	AYOKSH	1,1				1,1		
7	Kollej	3,0				3,0		
8	Gisht zavodi	2,2				2,2		

9	Suv ch.	0,2						0,2
10	Gaz o'tkazish yo'li	2,8						2,08
Jami		38,0				34,5		3,5

4-jadvaldan ko'rinadiki massiv chegarasida mavjud bo'lgan begona yerdan foydalanuvchilar ichida eng yiriklari, bu SP «Kobul Toytepa-tekistl to'qimachi (21.7) va boshqalardir.

Massiv xududi hozirgi kunda 14ta mavjud fermer xo'jaliklariga taqsimlangan bo'lib ularga jami 781,7 ga yer maydoni ajratilgan. Quyidagi jadvalda fermer jo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

5 - jadval

«O`rta Osiyo» massividagi fermer xo'jaliklari va ularning yer maydonlari haqida ma'lumot.

T.r.	Fermer massivlari nomi	Ixtisosligi	Umumiy maydoni, ga	Foydalaniladigan maydoni, ga
1	2	3	4	5
1.	G`aybullo Bozor	Paxta-g'alla	52,60	38,17
2.	Sobir Omon Fayz	Paxta-g'alla	88,37	73,19
3.	Rustam Mardon	Paxta-g'alla	57,79	54,72
4.	Arbob Husen	Paxta-g'alla	76,79	104,07
5.	Kosim Baxtiyor	Paxta-g'alla	97,81	86,69
6.	Arbob Botir	Paxta-g'alla	59,98	55,14
7.	Zirabot IGX	Paxta-g'alla	111,01	100,50

8.	Dilnoza O`g`li Abduxalil	Paxta-g`alla	595,08	84,49
9.	Odilshoh	Paxta-g`alla	359,40	301,05
10.	SafulloBobo Ziraboti	Paxta-g`alla	57.40	49,14
11.	Erkin YUsuf	Paxta-g`alla	77,60	69,45
12.	Bolta Bobo	Paxta-g`alla	61,12	58,95
13.	Xurshid Dildor Fayz	CHorvachilik	1487.8	0,00
14.	Mirza Nur	Tutchilik	4,62	2,48
15.	Sulton Said	Bog`dorchilik	8.15	0.00
16.	Istam SHarofat Bog`i	Bog`dorchilik	5.21	0.00
17.	Suxrob Lola	Bog`dorchilik	7.25	0.00
18.	Amon Axmad	Bog`dorchilik	6.99	0.00
19.	Amrillo Roziq	Bog`dorchilik	8.41	2.29
20.	Abbos Rayim	Bog`dorchilik	78.54	0.00
21.	Rajab Turob	Bog`dorchilik	1.05	0.46
22.	Fayzullo Bobo-97	CHorvachilik	9.45	9.23
	Jami		4764.9	1100.4

5-jadvaldagi ma`lumotlardan ko`rinadiki massiv xududidagi fermer xo`jaliklarining 14 tasi paxtachilikka, 1 tasi chorchachilikka, 7 tasi bog`dorchilikka ixtisoslashgan.

### 1.3 «O`rta Osiyo» massividagi aholi punktlari, yo`l va sug`orish tarmoqlarining tavsifi.

«O`rta Osiyo» massivi hududida 10 ta qishloq aholi punkti mavjud bo`lib, ularda jami 1006 xonadon istiqomat qiladi. Ushbu aholi punktlari va ulardagi aholi soni to`g`risidagi ma`lumotlar quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6 - jadval

«O`rta Osiyo» massivi hududidagi aholi yashash punktlarining tavsifi

T.r.	Aholi punktlarining nomi	Umumiy aholi soni	Xonadonlar soni	Mehnatga layoqatli odamlar soni	SHundan massivda ishlaydigani
1	2	3	4	5	6
	Zirabot	644	87	322	150
	Labobiyon	312	55	156	75
	Xasanator	471	92	230	115
	Moshkaron	330	51	165	80
	Kavola	1189	269	594	210
	Mugalon	460	71	230	115
	Davlatobot	933	123	455	227
	So`fiyon	461	78	230	115
	Mahaliyorak	635	102	317	158
	Tikonchi	501	78	250	125
	Jami	5936	1006	2998	1488

6 - jadvaldagi ma`lumotlardan ko`rinadiki, massiv hududida mavjud bo`lgan aholi punktlarining ichida «Qovla» qishlog`i eng yirik hisoblanib, bu aholi

punktida jami 1189 kishi istiqomat qiladi, lekin bor-yo'g'i 210 kishi massivda ishlaydi. Mehnatga layoqatli aholining deyarli 65 foizi massivdan tashqarida ishlaydilar,

Massivda asosan su'niy sug'orish asosida dehqonchilik yuritiladi. Massiv maydonlari Amu daryolaridan suv oladigan xo'jaliklararo kanallari yordamida sug'orish suvi bilan ta'minlanadilar. Buning uchun massiv juda ko'p tarmoqlangan sug'orish kanallariga, jumladan ichki massiv kanallariga, uchastkalarga va suv taqsimlaydigan kanalchalarga egadir. Sug'orish kanallarini yuqori sifatda va yuqori unumdorlik bilan ishlashini ta'minlashga massivda katta e'tibor beriladi. SHu sababli ham bugungi kunda massivdagi asosiy sug'orish tarmoqlari betonlashtirilgan, zarur gidrotexnik inshootlar bilan ta'minlangan. Ammo shunga qaramasdan ba'zi ichki kanallarni qayta ta'mirlash zarurdir. Massiv sug'orish tarmoqlari bilan bir qatorda zarur kollektor-derenaj tarmoqlariga ham egadir. Bu tarmoqlar asosan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho'rini yuvish va ortiqcha suvlarni chiqarib tashlash yoki bu suvlarni jamlab qaytadan foydalanishda qo'l keladi.

Massiv yer fondi va undan foydalanish to'g'risida so'z yuritilgan ekan, uning iqtisodiyotiga, odamlarning turmush sharoitini oshirishga yo'naltirilgan omillardan biri hisoblangan yo'l tarmoqlarini massivda anchagina rivojlantirilganligini alohida e'tirof etish zarur. Massivning ichki yo'llari 14,3 gektarni tashkil etgani holda, ularning sifati bugungi kunda talabga umuman javob beradi, barcha yo'llar asfalt bilan qoplangan, yo'l inshootlari bilan jihozlangan.

#### **1.4. Massiv ishlab chiqarish faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari.**

Massiv to'g'risida, uning ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha olingan ma'lumotlarga qaraganda, shirkat massivining asosiy ishlab chiqarish tarmog'i – dehqonchilik, yordamchi tarmog'i – chorvachilik hisoblanadi. Dehqonchilikda massiv asosan paxta, don, sabzavot, kartoshka va yem-xashak ekinlarini yetishtiradi. Dehqonchilikning barcha sohalari bugungi kunda asosan oilaviy pudratga o'tkazilgan. Massiv a'zolarining barchasi o'z paylariga egadirlar.

Natijada massiv iqtisodiyoti keyingi yillarda ancha ko'rarildi, yerdan va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi ancha orshdi. Bularning barchasini quyidagi iqtisodiy natijalardan ko'rish mumkin. Quyidagi 6-jadvalda shirkat massivining ekin maydonlarida 2013 yilda ekilgan qishloq massiv ekinlarining tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

7 - jadval

#### Qishloq massivi ekinlarining tarkibi

T.r.	Qishloq massiv ekinlari	Maydoni	
		ga	%
1	2	3	4
1	Sug'oriladigan bug'doy	290,0	39,9
2	Makkajo'xori silosga	5,2	0,7
3	G'o'za	366,0	50,4
4	Sabzavot	18,0	2,5
	Kartoshka	14,0	1,9
5	Beda	28,5	3,9
6	Poliz	4,8	0,7
	Jami:	726,5	100

7-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki jami ekin maydonlarining asosiy qismi paxta va don ekinlari bilan band bo'lgan. Boshqa ekinlarning maydoni unchalik katta emas. Ayniqsa beda ekinining maydoni massiv bo'yicha bor-yo'g'i 28,5 gektarni tashkil etadi. Kartoshka ekinining maydoni ham ko'p emas, ya'ni 14,0 gektardan iborat.

Massivdagi dehqonchilikning mavjud holatini aniqlash va unga to'g'ri baho berish, sug'oriladigan ekin maydonlaridan foydalanishning mavjud darajasini aniqlash uchun massivda ekilgan qishloq massiv ekinlarining hosildorliklari, yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Bu ma'lumotlar quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

«O`rta Osiyo» xujaligida 2013 yilda yetishtirilgan qishloq massiv ekinlarining hosildorliklari va yetishtirilgan mahsulotlar.

T.r.	Qishloq xo'jalik ekinlari	Ekinlarning maydoni, ga	Hosildorligi ga\s	YAlpi hosil, t
1	2	3	4	5
1.	Sug'oriladigan bug'doy	290,0	33,6	974,4
2.	Makkajo'xori silosga	5,2	168	36,3
3.	G'o'za	366,0	22,4	819
4.	Sabzavot	18,0	162	291,6
5.	Kartoshka	14,0	112	158,6
6.	Beda	28,5	164	467,4
7.	Poliz	4,8	196	94,08
	Jami	726,5		

8 - jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, shirkat massivida 2013 yilda 974,4 tonna bug'doy, 819,0 tonna paxta va ko'pgina dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan. Bunda bug'doyning hosildorligi gektaridan 33,6 sentnerni, paxtaniki 22,4 sentnerni tashkil etgan. Umuman bu ko'rsatkichlar massivda sug'oriladigan maydonlardan foydalanish darajasi o'rtacha ekanligini ko'rsatadi.

Chorvachilik tavsifi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda 2000-2002 yillarda boshlarida massiv ixtiyorida 2 ta chorvachilik fermasi bo'lib, ularda jami 600 boshdan ortiq jamoa qoramollari parvrish qilingan. 2004-2006 yillarda massivning chorvachilik fermalarini xususiyashtirish natijasida 1 ta qoramol fermasi xususiyashtirilgan va bugungi kunda massiv ixtiyorida faqat bitta ferma qolgan bo'lib unda jami 185,0 qoramol jumladan 110 bosh sog'iladigan sigirlar mavjud. Chorvachilik massivda yordamchi tarmoq sifatida faoliyat ko'rsatadi. U bugungi

kunda to'la oilaviy pudratga o'tkazilgan. Massivda chorvachilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

9 - jadval

### **Chorvachilikning asosiy ko'rsatkichlari**

T.r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birilgi	Miqdori
1	Mavjud qoramollar soni	bosh	185
2	Sog'iladigan sigirlar soni	bosh	110
3	Bir sigirdan sog'ib olinadigan sut	kg	1680
4	Jami yetishtirilgan sut	t	184,8
5	Jami yetishtirilgan go'sht	t	2,7

9 - jadvaldan ko'rinadiki 2013 yilda massiv bo'yicha 184,8 tonna sut, 2,6 tonna go'sht yetishtirilgan. SHu bilan birga qayd qilish joizki, massivda xususiy va shaxsiy chorva mollar bosh soni ko'paymoqda. Qishloq fuqarolar yig'inidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, 1999 yilga nisbatan 2009 yilda xonadonlardagi shaxsiy qoramollar soni 2 barobar oshgan.

Massivdagi yana bir yordamchi tarmoq bu bog'dorchilik hisoblanadi. Massivi hududida 42,19 gektar bog' maydonlari mavjud bo'lib ularning barchasi hosil beradigan bog'lardir. 2013 yil natijaliri bo'yicha har bir gektar bog'dan olingan hosildorlik 110 sentnerni, jami 464,09 tonna mevani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar boshqa qo'shni massivlarga nisbatan ancha yaxshidir.

Massivida yil davomida yetishtirilgan chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini davlatga sotish yoki bir qismini bozorda sotish, boshqa korxonalar, tashkilot va muassasalarga turli xizmatlar ko'rsatish natijasida umumiy daromad vujudga keladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish yoki xizmat ko'rsatishga sarflangan xarajatlarni aniqlash va ularni massiv yalpi daromadidan chiqarib tashlash natijasida sof daromad vujudga keladi. Bu sof daromadning bir qismi massivni rivojlantirish uchun sarflansa, qolgan qismi dividend sifatida massiv va fermer xo'jaligi a'zolariga tarqatiladi. Massiv faoliyatining asosiy iqtisodiy

ko'ratkichlari quyidagi 10-jadvalda keltirilgan.

10 - jadval

Massivning asosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

T.r.	Ko'rsatkichlar	O'lchov birilgi	Miqdori
1.	Massivning umumiy yer maydoni	ga	1056,4
2.	Foydalaniladigan umumiy maydoni	ga	1018,24
3.	Sug'oriladigan haydalma yer maydoni	ga	726,5
4.	G'o'za maydoni	ga	366,0
5.	Bug'doy maydoni	ga	290,0
6.	Hosildorlik:	s\ga	
	- g'o'za	s\ga	22,4
	- bug'doy	s\ga	33,6
7.	Yalpi hosil:	t	
	- paxta	t	819,0
	- bug'doy	t	974,4
8.	Yetishtirilgan:		
	- sut	t	184,8
	- go'sht	t	2,6
9.	Oligan yalpi daromad jami:	ming so'm	983995,6
	- dehqonchilikdan	ming so'm	860345,6
	- chorvachilikdan	ming so'm	123650,0
10.	Saflangan xarajatlar	ming so'm	737996,7
11.	Sof daromad	ming so'm	245998,9
12.	Rentabellik darajasi	%	33,0

10 - jadvaldan ko'rinadiki, 2013 massiv yilida massiv bo'yicha 245,9 mln. so'm sof daromad olingan. Rentabellik darajasi esa 33,0 foizni tashkil etgan.

## **2-BOB**

# **YeR UCHASTKALARIGA BO'LGAN HUQUQLARNI RO'YXATGA OLISH VA KADASTR RAQAMLARINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY MASALALARI**

## **2.1 Davlat yer kadastrining turlari, tamoyillari va hujjatlari**

O'tkazilish mazmuni va tartibiga qarab davlat yer kadastrini asosan ikki turga bo'linadi: asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik).

Asosiy va joriy kadastr o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan yer kadastrining bosqichlaridir. Asosiy kadastr joriy kadastrni yuritishga zamin yaratadi. Joriy kadastr, asosiy kadastr ma'lumotlarini yangilaganini va to'ldirilganini holda yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli tarzda shu kunning talabi darajasida ushlab turadi. SHu sababli xam joriy yer kadastrini bo'yicha ishlar asosiy yer kadastrini ishlari tugagandan so'ng birdaniga tashkil etilishi zarur.

Yer kadastrini ma'lumotlarining aniqligi yer tuzish, o'rmon tuzish, tasvirga olish va kuzatuv materiallarining sifatiga bog'liq. Joriy yer kadastrini ishlari asosiy yer kadastrini materiallaridan foydalaniladi.

Yer kadastrini yuritishda bir qator tamoyillarga amal qilish zarur. Davlat yer kadastrining bunday asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: mamlakatning butun hududini to'la qamrab olish, fazoviy kordinatalarning yagona tizimini qo'llash, yer kadastriga doir axborotlar ishlab chiqish uslubiyatining birligi yer kadastriga doir axborotlarning to'g'ri bo'lishi, qonuniylik uzluksizlik, ko'rgazmalilik, markazlashgan rahbarlik va boshqalar.

Ma'lumki yer kadastrini ishlari mamlakatning barcha hududlarida yagona uslubiyat asosida bajarilishi zarur. Bir davrda mamlakatning barcha hududlarini to'la qamrab olgan holda o'tkazilgan yer kadastrini ishlarining natijalari xam respublikamizning yer maydonlari to'g'risida aniq fikr-mulohazalar yuritish imkonini beradi.

Yer kadastrini yuritish uzluksiz holda amalga oshirilishi zarur. Jumladan, yer kadastrini yerdan foydalanishda ro'y beradigan o'zgarishlarni doimiy ravishda hisobga olib yer fondi holatining aniq tavsifini berishi zarur. Bundan ko'rinadiki, yer kadastrini ma'lumotlari yerlarning tabiiy, xo'jalik va xuquqiy holatlarida bo'ladigan joriy o'zgarishlarni tizimli tarzda aniqlab berilishi kerak. e'tirof etish

zarurki, har bir qishloq xo'jalik korxonasidagi yer maydonlarda har yili juda ko'p sonli o'zgarishlar kuzatiladi. Ma'muriy tuman (shahar), viloyat va nihoyat mamlakat bo'yicha esa bunday o'zgarishlar juda katta miqdorlarni tashkil etadi. Bu o'zgarishlarni doimiy ravishda aniqlab borish yagona yer fondidan foydalanishni maqsadga muvofiq boshqarish imkonini beradi. SHuning uchun xam yer kadastrini uzluksiz ravishda o'tkazish zarur bo'ladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, yer kadastriga doir axborotlar to'g'ri bo'lishi kerak. Uning barcha ko'rsatkichlari qat'iy aniq, haqiqatga to'la mos kelishi zarur. Yerdan foydalanishning xuquqiy, tabiiy va xo'jalik holatlariga mos bo'ladigan faqatgina ob'ektiv ma'lumotlar mamlakat yer fondidan to'g'ri foydalanish va boshqarish bo'yicha davlat vazifalarini bajarish uchun muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. SHuning uchun ham yer kadastri hujjatlariga birlamchi yoki joriy o'zgarishlarni kiritish ularni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslaniladi.

Axborotlar to'g'ri bo'lishi nuqtai nazardan yerdan foydalanuvchilarning o'zlari xam yer kadastrini to'g'ri yuritishlari katta ahamiyatga egadir. SHuning uchun har bir yerdan foydalanuvchi yer kadastrini yuritish bo'yicha o'zidagi zarur hujjatlarda yer tarkibida ro'y bergan barcha o'zgarishlarni aniq hisobga olgan holda tuman hokimiyatiga yerdan foydalanishning haqiqiy holati to'g'risida hisobot taqdim etishi zarur.

Ma'lumki, asosiy va joriy yer kadastri ularning mazmuni va mohiyatiga mos holda yer kadastri hujjatlarida yoritiladi. O'zlarining mohiyatiga qarab yer kadastri hujjatlari matn-yozuv va grafik-chizma turlariga bo'linadi. Matn – yozuv hujjatlari kitob, qaydnoma, tushuntirish xatlari ko'rinishida ulib, yer kadastri ma'lumotlari natural ko'rsatkichlarda yoritiladi. Grafik-chizma hujjatlari – bu yer kadastri ishlari o'tkazilayotgan hududni ma'lum masshtablarda qog'ozda aks ettirilishi asosida olinadigan turli plan-haritalar, chizmalardir.

Matn va grafik - chizma hujjatlar o'rtasida doimiy ravishda uzviy bog'liqlik mavjud. Matn hujjatlar odatda grafik hujjatlardagi ma'lumotlar asosida to'ldiriladi

va aksincha. Yer kadastrı hujjatlari mazmuni va mohiyati bo'yicha asosiy, yordamchi, birlamchi hujjatlarga bo'linadi. Asosiy yer kadastrı hujjatlari o'z navbatida hisob-kitob va hisobot turlariga bo'linadi. Ma'muriy tuman (shahar) bo'yicha yer kadastrining asosiy hisob-kitob hujjati – bu tuman (shahar) davlat yer kadastrı kitobidir.

Ushbu kitobda odatda tuman (shahar) bo'yicha barcha yerdan foydalanuvchilar yer mulkdorlarining ro'yxati, yerlarning miqdor va sifat hisobi, tuproq bonitirovkasi hamda yerlarni iqtisodiy baholash ma'lumotlari qayd qilinadi. O'z mohiyati bo'yicha ikkinchi muhim hisob kitob hujjati – bu tumanning navbatchi kadastr haritasidir. U tumanda mavjud bo'lgan barcha yerdan foydalanuvchilar, yer mulkdorlari va boshqa birliklarni ma'lum masshtabdagi haritada hududiy joylashuvi bo'yicha aniq tasavvur beradi. Yer kadastrining asosiy hisobot hujjatlari – bu tuman (shahar), viloyat yer balansi milliy hisoboti.

Yerdan foydalanuvchilarning asosiy kadastr hujjatlari – bu barcha yerlardan foydalanishni hisobga olib boradigan hamda ularda yuz beradigan o'zgarishlarni davriy ravishda tizimli tarzda yoritadigan hujjatlardir. Bunga asosan yerlardan foydalanish xuquqlarini beruvchi davlat dalolatnomalari, yerga mulk xuquqini tasdiqlovchi guvoxnoma, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning yer kadastrı kitobi va yerdan foydalanuvchilarning turli mazmundagi plan-haritalari kiradi. Yordamchi yer kadastrı hujjatlariga asosan ishchi daftarlar, yer mulkdorlari, yerdan foydalanuvchilar ro'yxati, hisobotlar va ularga ilovalar, tushintirish xatlari, ocherklar, kartogrammalar, diogrammalar kiradi. Ular asosiy yer kadastrı hujjatlarida keltiriladigan ma'lumotlarni to'ldiradilar.

Asosiy yer kadastrı hujjatlariga yer kadastrini yuritish uchun birlamchi hujjat ma'lumotlaridan foydalaniladi. Boshlang'ich tarzda yer kadastrini yuritish hamda joriy o'zgarishlarni kiritishda xam birlamchi hujjatlar asos bo'ladi. Bunday hujjatlarga asosan yer tuzish, o'rmon tuzish, maydonlarni tasvirga olish, yerlarni yo'qlama qilish, yer va ekin turlarini maxsus asboblar yordamida nazoratli o'lchov, tuproq, agrokimyoy, geobotanik va meliorativ kuzatuv materiallari, yerdan

foydalanishda ro'y bergan o'zgarishlarni o'lchov natijalari bo'yicha materiallar, tuproq bonitrovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash, maydonlar yuzalarini hisoblash qaydnomalari kabilar kiradi.

Asosiy yer kadastru hujjatlarida yuqoridagilar bilan birgalikda yer kadastru ma'lumotlarini qonuniy ravishda tasdiqlovchi unga xuquqiy asos bo'ladigan hujjatlar ham zarur. Bularga asosan «Yer kodeksi», «Davlat yer kadastru to'g'risida» gi va «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonunlar Vazirlar Maxkamasining, viloyat va tuman hokimiyatlarining yer munosabat -larini tartibga solish va yerdan foydalanish sohalaridagi qarorlari kiradi.

## **2.2. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishning nazariy asoslari**

Xo'jalik yoki korxonalar, muassasa va tashkilotlarni yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini ro'yxat qilish davlat yer kadastrining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ro'yxatlash ma'lum bir yer uchastkasiga mulkdorlik, foydalanish yoki ijara huquqini rasmiylashtirish hamda davlat miq'yosida qabul qilingan yagona shakldagi xujjatlarda aks ettirish bo'yicha huquqiy tadbir hisoblanadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish ma'lumotlari huquqiy kuchga ega. Albatta, yerlarni ro'yxat qilish ishchi tizim sifatida birdaniga shakllanmagan. U XX asrning 20-30 yillarida o'tkazila boshlangan hamda boshlang'ich davrlarda yerdan foydalanish huquqini rasmiylashtirish va yerga davlat mulkchiligini ta'minlashga yo'naltirilgan. SHu bilan bir qatorda uning vazifasiga yer maydonlarining huquqiy va xo'jalik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tizimli tarzda saqlash va yangilab turish ishlari kirgan.

Yer uchastkasiga bulgan huquqlarni ro'yxatga olish yer hisobi bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish ma'lum bir yer uchastkasidan foydalanish, ijaraga olish huquqlarini rasmiylashtirish va yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilingan xujjatlarda qayd qilish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Bunda dastlabki

xujjalari yer uchastkalarining huquqiy holati to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Ammo, yerdan foydalanish ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligi hamda ma'lum hudud va aniq sub'ekt bilan bog'liq bo'lganligi sababli u o'z ichiga yer uchastkalarining xo'jalik holati, joylashgan o'rni va yerdan foydalanishning o'lchamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi.

Yer uchastkasini yerdan foydalanuvchiga berish to'g'risidagi vakolatli davlat organlarining qarori hamda yer tuzish loyihasini joyga ko'chirish va yer uchastkasi chegaralarini joyda belgilash to'g'risidagi dalolatnoma yerdan foydalanuvchi yoki yer-mulkdorini ro'yxat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat ro'yxatida rasmiylashtirilgandan so'ng yerdan foydalanuvchiga yerdan foydalanish huquqlarini beruvchi xujjatlar topshiriladi.

Yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish yoki mulk tariqasida berish yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Buxoro shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun xujjatlarida belgilab quyilgan tartibda amalga oshiriladi. Foydalanishdagi yer uchastkasining boshqa shaxslarga berish shu yer uchastkasi belgilangan tartibda qaytarib olingandan keyingina amalga oshiriladi.

Yerni ijaraga olish huquqi yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Servitutlar va mulk huquqidagi boshqa cheklashlar yer uchastkalaridan foydalanish shartnomalar, sud qarorlari asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Yer uchastkasidan o'zgalarning ham qisman foydalanishi mumkinligi to'g'risidagi xuquq davlat hokimiyati organlarining qarorlari yohud qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Binoga, inshootga va imoratga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tishi natijasida yuzaga kelgan yer uchastkasidan foydalanish huquqi ana shu mulkdorlarning oldi-sotdisi, almashtirilganligi, xadya etilganligi yoki vasiyat qilinganligi to'g'risidagi tegishli shartnomalar va bitimlar, tuziladi. Mulkdorlarning yoki ular tomonidan vakil qilingan organlar va yuridik shaxslarning qarorlari, shuningdek binoga, imoratga, inshootga mulk huquqi undan boshqaga o'tayotgan

shaxsning yer uchastkasiga tegishli xujjatlari tegishli hokimiyat organlarining qarori bilan rasmiylashtirilganidan keyin ro'yxatdan o'tkaziladi.

Sanoat korxonalari, temir va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr energiyasini uzatish qurilmalari, magistral quvurlar qurish uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan bog'lik bo'lmagan boshqa extiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar yohud qishloq xo'jaligining sifati yomon bo'lgan yerlardan ajratiladi. Mazkur maqsadlar uchun o'rmon fondiga qarashli yerlardan yer uchastkalari asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki butazorlar va arzon baho o'simliklar bilan qoplangan maydonlar hisobidan beriladi.

Yerdan foydalanuvchiga foydalanish uchun bitta yoki alohida-alohida joylashgan bir necha yer uchastkalari berilishi mumkin. Bunda birinchi holatda ham ikkinchi holatda ham yerdan samarali foydalanishni tashkil etish uchun asos yaratadi, negaki yerdan foydalanish sub'ekt tomonidan amalga oshiriladi. U o'ziga birlashtirilgan barcha hududdan foydalanish bo'yicha ma'lum huquq va majburiyatlarga egadir. Yerdan foydalanish ro'yxat qilinadi va u yer uchastkasi xuquqini ro'yxatdan o'tkazishning ro'yxat birligi asosini tashkil etadi. Ro'yxatlash yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning ob'ekti va xo'jalik yuritish sub'ekti sifatida yoki yerdan foydalanuvchining o'zga faoliyati sifatida gavdalanadi hamda ma'lum aniqlikdagi joylashgan o'rni va o'lchamlari bilan tavsiflanadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar, ya'ni yerdan foydalanuvchilar davlat tomonidan ushbu huquqlarni tasdiqlaydigan xujjatga ega bo'ladilar. Yerdan foydalanish turlariga qarab huquqiy rasmiylashtirish xujjatlari xamda yerdan foydalanuvchilarni ro'yxat qilish tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Yerdan foydalanishni ro'yxat qilish yer uchastkalaridan foydalanish muddatlari bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni muddatsiz va vaqtinchalik (uzoq muddatli va qisqa muddatli). Muddati oldindan belgilanmagan foydalanish muddatsiz hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u doimiy yerdan foydalanishdir. Bunday yerdan foydalanishlar tuman (shahar) hokimiyatlari tomonidan yerlardan doimiy (muddatsiz) foydalanish huquqini beruvchi Davlat dalolatnomalari berish

bilan vujudga keladi.

Yerdan muddatli foydalanish qisqa muddatli - bir yildan uch yilgacha va uzoq muddatli - uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari talab qilgan hollarda bu muddatlar vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan foydalanish muddatlarini uzaytirish ana shu yer uchastkalarini bergan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo'jalik korxonalarini, muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar uchun davlat ro'yxatini amalga oshirish yerdan foydalanish toifalari bo'yicha belgilangan tartibda tuman va shahar hokimiyatlarida amalga oshiriladi. Har bir yerdan foydalanuvchi bo'yicha muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa muddatli yerlar alohida ro'yxat qilinadi. Asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yerdan foydalanuvchilarning nomi, foydalanish turi, joylashgan o'ri, foydalanish muddati, yer maydoni va yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat xujjatining nomi, uning tartib raqami hamda yerdan foydalanuvchiga berilgan vaqti va boshqalar. Yerdan foydalanishning davlat ro'yxati tuman (shahar) Davlat yer kadastrini kitobining birinchi bo'limida amalga oshiriladi.

Yer uchastkasidan foydalanish huquqini ro'yxatlash bo'yicha ma'lumotlar tumanning va alohida yerdan foydalanuvchilarning boshqa kadastr xujjatlarida ham qayd qilinadi. Masalan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yer kadastrini kitobining birinchi bo'limida tuman (shahar) Davlat yer kadastrini kitobining birinchi bo'limida qayd qilingan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari kiritiladi. Kitobning beshinchi bo'limida esa fuqarolar tomorqa yerlarining maydonlari qayd qilinadi. Tomorqa yerlar to'g'risidagi ma'lumotlar qishloq fuqarolar yig'inida yuritilayotgan xo'jalik daftarida ham qayd qilib boriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishning muhim tashkiliy tadbirlaridan biri – bu hududni kadastr bo'yicha bo'lish hisoblanadi.

### **2.3 Kadastr raqamlarini shakllantirish uslubiyati**

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar uchun davlat ro'yxatini amalga oshirish yerdan foydalanish toifalari bo'yicha belgilangan tartibda tuman va shahar hokimiyatlarida amalga oshiriladi. Har bir yerdan foydalanuvchi bo'yicha muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa muddatli yerlar alohida ro'yxat qilinadi. Asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yerdan foydalanuvchilarning nomi, foydalanish turi, joylashgan o'рни, foydalanish muddati, yer maydoni va yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat xujjatining nomi, uning tartib raqami hamda yerdan foydalanuvchiga berilgan vaqti va boshqalar. Yerdan foydalanishning davlat ro'yxati tuman (shahar) Davlat yer kadastr kitobining birinchi bo'limida amalga oshiriladi.

Yer uchastkasidan foydalanish huquqini ro'yxatlash bo'yicha ma'lumotlar tumanning va alohida yerdan foydalanuvchilarning boshqa kadastr xujjatlarida ham qayd qilinadi. Masalan, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning yer kadastr kitobining birinchi bo'limida tuman (shahar) Davlat yer kadastr kitobining birinchi bo'limida qayd qilingan korxonalar, muassasa va tashkilotlarning asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari kiritiladi. Kitobning beshinchi bo'limida esa fuqarolar tomorqa yerlarining maydonlari qayd qilinadi. Tomorqa yerlar to'g'risidagi ma'lumotlar qishloq fuqarolar yig'inida yuritilayotgan xo'jalik daftarida ham qayd qilib boriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishning muhim tashkiliy tadbirlaridan biri – bu hududni kadastr bo'yicha bo'lish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish ko'chmas mulkni hisobga olishning yagona tizimini yaratish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarga kadastr raqamlarini berish maqsadida amalga oshiriladi.

Yer uchastkalari kadastr bo'yicha bo'lishning va ajratish tartibida ajratilgan yerni hisobga olishning dastlabki birligi hisoblanadi.

Muayyan yuridik va jismoniy shaxslarga biriktirilmagan umumiy foydalanishdagi yerlar, jumladan ko'chalar, maydonlar, ko'kalamzorlashtirilgan mintaqalar, yodgorlik majmualari, qabristonlar, shahar axlatxonalari, shahar

qurilishi uchun ajratiladigan zahira yerlar va boshqa yerlarga bo'linadigan kadastr bo'yicha hisobga olish uchastkalari yerni kadastr bo'yicha bo'lish va hisobga olish birligi hisoblanadi.

Hududlarni kadastr bo'yicha bo'lish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar (shahar tumanlaridan tashqari) doirasida yer resurslari boshqarmalari tomonidan, shaharlar va aholi punktlari doirasida – tumanlar ko'chmas mulk kadastr xizmatlari tomonidan o'tkaziladi.

Kadastr raqami bu – yer uchastkasi, bino, inshootga tegishli O'zbekiston Respublikasi hududida takrorlanmaydigan raqamdir, u qonun xujjatlari bilan belgilangan tartibda uni shakllantirishda beriladi va u ro'yxatdan o'tkazilgan huquqning yagona ob'ekti sifatida faoliyat yuritish davomida saqlanib qoladi.

Quyidagilar yer uchastkasi, bino va inshootlarning kadastr raqamining majburiy elementlarini tashkil etadi:

- mintaqa (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Buxoro shahri) ning raqami;

mintaqa tarkibidagi ma'muriy tuman yoki viloyatga bo'ysunuvchi shaharning raqami;

kadastr zonasining raqami;

kadastr massivining raqami;

kadastr mavzesining raqami;

yer uchastkasining raqami;

bino yoki inshootning raqami;

bino, inshoot bir qismining raqami;

Yaxlit holda kadastr raqami quyidagi tuzilmaga ega:

AA : VV : DD : YeE : G'G'G'G' : GGGG : NNN

Yer uchastkasiga kadastr raqamini berish yer uchastkalariga ko'chmas mulk ob'ekti sifatida shakllantilgan va ularning chegaralari tuman (shahar) navbatchi kadastr xaritasiga kiritilganidan keyin boshlanadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bo'linadi. Birlamchi ro'yxat qilishda yangi yerdan

foydalanuvchilarni rasmiylashtirish, yer ro'yxati xujjatlariga birlamchi zarur ma'lumotlarni tushirish va tizimga keltirish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi. Uni o'tkazish jarayoni natijasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar bo'yicha birlamchi yozuv tushiriladi. Keyinchalik Xo'jalik faoliyatining rivojlanishi natijasida yerdan foydalanishning o'lchamlari va tarkibida u yoki bu ko'rinishlardagi qonuniy o'zgarishlar ro'y beradi. Bu hol esa yerlarning huquqiy holatini aniqlashga zarurat tug'diradi. Masalan, davlat va jamoat zaruriyatlari uchun yer ajratilishi natijasida yerdan foydalanishning umumiy maydoni, jumladan alohida yerdan foydalanish turlarining maydonlari o'zgaradi. Bunday holatlar ayniqsa yerdan vaqtinchalik foydalanishda ko'p uchraydi. Ba'zi holatlarda esa aksincha yerdan foydalanuvchiga oldin undan olingan yer uchastkasi qaytarib beriladi. Negaki, bunday holatda oldin ajratib berilgan maqsadlar uchun yerdan foydalanishga extiyoj qolmagan. Bundan boshqa xam qator qonuniy sabablar bo'lishi mumkin.

Yerdan foydalanishdagi barcha qonuniy o'zgarishlarni rasmiylashtirib borish va ushbu o'zgarishlarga hamda birlamchi ro'yxat ma'lumotlariga zaruriy aniqliklar kiritish yerdan foydalanishning joriy ro'yxati tartibida amalga oshiriladi. SHu tarzda yer uchastkalarining ro'yxatlash ma'lumotlari doimiy ravishda shu kun talabi darajasida bajarib boriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning yuzaga kelishi, uni o'zga foydalanuvchiga o'tishi, undan foydalanish bo'yicha cheklanishi yoki bekor qilinishi ham davlat ro'yxatiga olib boriladi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olinganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olish yig'imi undiriladi. Davlat ro'yxatiga olish belgilangan tartibda, yuridik yoki jismoniy shaxsning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish ishlarini amalga oshiruvchi organga bergan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Ro'yxatga olish ariza bergan kundan e'tiboran un kunlik muddatda amalga oshiriladi va davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma beriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish vaqtida tuman

(shaxar) yer kadastrı kitobıgı quyıdagi ma'lumotlar kiritiladi:

-yer uchastkasıgı bo'lgan huquqni olgan yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risıdagi;

-yer uchastkasi to'risıdagi (yerning toifasi, foydalanish maqsadi, yerning turi, uning sifati, chegaralari, maydoni, kadastr raqami va boshqalar);

-yer uchastkasining berilish shartlari, uni saqlash vazıfaları va servitutlar to'g'risıdagi;

-tuman, shahar, viloyat hokimining, Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer uchastkasini davlat yoki jamoat extıyojlari uchun ajratish xususıdagi qarorlari to'g'risıdagi;

-davlat ro'yxatıgı olinganlik haqidagi guvohnomaning tartib raqami va u berilgan sana to'g'risıdagi ma'lumotlar.

Yer uchastkalarıgı bo'lgan huquqlarnı belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi xujjatlar ana shu huquqlarnı davlat ro'yxatıgı olish uchun asos bo'lib xızmat qiladi.

Yer uchastkalarıgı bo'lgan huquqlarnı davlat ro'yxatıgı olish uchun berilgan arızalarnı ro'yxatgı olish maxsus ro'yxatgı olish jarayonıdagi yuritiladi.

## **2.4. Massıvda mehnatni muxofaza qilish masalalari**

### **Hayot faoliyati xavfsızligining nazariy asoslari.**

Hayot-faoliyat xavfsızligi kishilik jamiyatining xamma xolatlarıdagi sharoitlar bilan kizıkadi va ularni o'rganadi.

Faoliyat va mehnatning shakllari xilma xildir. Ular turmushda, jamiyatda, madaniyatda, ishlab chikarishda, ilmda va boshka xayot soxalarıda kehadigan amaliy, akliy va ma'naviy jarayonlarnı o'z ichıgı oladi. Faoliyat jarayonining modelini umumiy xolda ikkita elementdan tashkil topgan deb karash mumkin, ya'ni bir-biri bilan to'g'ri va kaytma alokada bo'ladigan inson va muxit elementlarıdir.

Ko'ngilsız okıbatlarnı keltirib chikaruvchi xodisa, ta'sir va boshka jarayonlar xavflar deb ataladi. Xavflar yashirin (potensial) va real turlarga

ajratiladi. Xavflar uchun kuyidagi belgilar xarakterlidir: xayotga taxlika, soglikka zarar, inson a'zolari ishlashining kiyinlashishidir.

Tajriba shuni ko'rsatadi, xar kanday faoliyat potensial xavflidir. Bu tasdiklanish aksiomal xarakterga egadir va bir vaktning o'zida tan olinadiki, xavf (tavakkal) darajasini boshkarsa bo'ladi, ya'ni kamaytirsam bo'ladi. Bu tasdiklanish esa ma'kul bo'lgan tavakkal konsepsiyasiga olib keladi. U absolyut xavfsizlikga erishib bo'lmasligini tushunishga asoslanadi. Xavfsizlik - bu faoliyatning xolati bo'lib, ma'lum extimolikda xavflarning kelib chikishini bartaraf kilishdir. Xavfsizlik - bu insonlar oldiga ko'yilgan maksaddir. Xayot faoliyati xavfsizligi esa maksadga erishishning vosita, yo'l va usullaridir. "Xayot-faoliyat xavfsizligi" - xavflar va ulardan ximoyalanishni o'rganadi. Uni o'rganishning predmeti - faoliyat (mexnat)ning bir tomonidir, aynan xavflar ulardan ximoyalanish makksadida.

Odamzot xar doim o'zining xavfsizligini ta'minlashga intiladi. Ishlab chikarishning rivojlanishi bilan bu masalalar maxsus bilimlarni talab kiladi. Bizning davrimizda xavfsizlik muammolari yanada keskinlashdi. Mamlakat va jamiyat baxtsiz xodisalar, yonginlar, avariyaalar va talofatlardan ulkan zarar ko'rib kelmokda. Shuning uchun xavflardan ximoyalanish masalalarida odamlarni tarbiyalash muxim axamiyat kashf etadi. Bizning jamiyatimizni barkarorlashtirishda Xayot faoliyati xavfsizligi muxim ijtimoiy rol o'ynaydi va xalk faoliyati xavfsizligi darajasini oshirishda ulkan xissa ko'shadi.

### **Mehnat muhofazasi**

Massiv hududida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida ishchi xodimlarni mehnat faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun korxonaa rahbari va mehnat muhofazasi bo'yicha yetakchi xodim tomonoidan ishchi mehnatkashlar uchun xavfsiz, qulay mehnat sharoitlarini yaratish lozim. Ular dala sharoitida turli xil texnikalar, mineral va organik o'gitlar va shunga o'xshash zararli va xavfli manbalar bilan ish olib boradilar.

Mineral o'gitlar, usimliklarni o'sishini ta'minlovchi, pestitsidlar zararsizlantiruvchi vositalar sifatida o'silikshunoslik amaliyotiga keng kirib kelgan. Ular yukori va sifatli xosil olishni ta'minlaydi. Birok bu moddalar muayan

mikdorda insonga va atrof muxitga xavflidir.

Kimyoviy moddalarning insonga ta'siri ular bilan bevosita (aralashmalar tayyorlanganda, urug'larga, tuprokka ishov berishda, ishlov bergan usachtkalarda ishlaganda) va bilvosita – o'simlik, ozik-ovkat maxsulolari orkali, kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilgan dalalardan olingan meva-sabzavotlar yem sifatida ishlatiganda kaysilari tarkibidanitrat va pestitsidlarning miklori me'yoriy ko'rsatkich darajasidan yukori bo'lganda seziladi. pestitsidlar inson uchun mineral o'g'itlarga nisbatan xavflidir.

Pestitsidlar bilan ishlashga xomilador va emizikli ayollar, 18 yoshga to'lmagan va 55 yoshdanatta (erkaklar va 50 yoshdan oshgan (ayollar), shuningdek mexanizator ayollarni pestitsidlar va mineral o'g'itlarni purkash, changlatish, tashish, ortish va tushirish ishlariga jalb kilish mumkin emas. Pestitsidlar bilan ishlaydigan, mexnat muxofazasi bo'yicha xar yili yo'riknomadan o'tishi va o'kishi shart. Pestitsidlar bilan kuniga - 6 soat, simob preparatlari va fosfoorganik birikmalar bilan – 4 soat ishlash kerak. Pestitsid va mineral o'g'itlar bilan bajariladigan barcha ishlar mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi, ularni bajarishda shaxsiy ximoyalanish vositalaridan foydalaniladi. Bir kator ishlar protivagaz (gaznikob) va respiratorlarda bajariladi.

Fermer xo'jaligi raxbarlari dalalarga kimyoviy ishlov berishda xamisha 2 kun oldin, kishlok axolisini va asalarichilarni ogoxlantirish berib ogoxlantiradi. Asalari uyalari kamida 5 km uzaklikka olib chikiladi., so'ng 5-7 sutkadan keyin kimyoviy pereparatlarning turiga va ishlatilishiga karab kaytariladi.

O'simliklarga kimyoviy ishlov berishda suv xavzalaridan, sanitar ximoyalanish zonasidan 300 m yakinda ko'llash mumkin emas. Pestitsidlar bilan ishlov berilgan uchastkalarda fakat ro'yxat ko'rsatilgan muddatlar o'tgandan keyingina ish davom ettiriladi. Muddatlar, ko'llanilgan pestitsidlarni fizik-kimyoviy xususiyatlariga, ularning ta'sir darajasiga, atrof-muxitda saklanuvchanlik xususiyatlariga, bajariladigan ishning xususiyatiga (ko'lda yoki mashinada) va boshka sabablarga karab u 1 sutkadan 60 sutka oraligida o'zgarishi mumkin.

Pestitsidlar kimyoviy korxonalaridan keltiriladi, ularni fakat idishda

(bochkalarda, barabanlarda, kanistrlarda, shisha idishlarda, koliplarda, yashiklarda, kutilarda va boshk.) yassi yoki tirkab ko'yiladigan podonlarda, stelalarda bir birining ustiga ko'yib saklanadi. Xar xil pestitsidlar (gerbitsid, fungitsid, va boshk) boshka-boshka garamlarda saklanadi, ular orasidagi oralik 1 m dan kam bo'lmasligi kerak. Preparatlarni kabul klashga va tarkatishga omborchi javobgardir. Omborxonaga begona shaxslarning Kirishi man etiladi. Preparatlarni koplash, tortish va berishda nafas olish organlarini ximoyalash uchun ximoya vositalaridan foydalaniladi.

Pestitsid javobgar shaxs ishtirokida, maxsus yoki maksad uchun moslashtirilgan transportda, fakat soz va yaxshi yopiladigan tkilgan va nosozlik tuzatiladi, uning uchun xamma materiallarga, asboblarga va shaxsiy ximoya vositalariga ega bo'lish kerak.

Uruglar shamol esadigan tomomnda, turar joylar, molxona, ozik ovkat, yem – xashak saqlanadigan omborlar, suv manbalaridan 200 m narida maxsus binolarda dorilanadi. Uruglik dorilanadigan agregatlar sozlangan, maxkam berkitilgan bo'lishi kerak.

Chigitni kuruk dorilash kat'iy mann etiladi. Urugni dorilash davrida, begona odamlarning yurishi yoki katnashishiga mutlako ruxsat etilmaydi. Urugliklarni dorilash vaktida ishchilar ko'zda tutilgan barcha xavfsizlik talablariga amal kilishlari shart, jumladan kombinzon kiyib olishlari, maxsus ko'zoynak, respirator, nikoblar takishlari shart.

Zaxarli ximikatlar bilan ishlaydigan kishilarning shaxsiy ximoya vositalari: korjoma, nikob, protivogaz va maxsus etiklar o'zlariga loyik bo'lishi kerak, Aks xolda tor kiyim xarakatga xalakit kiladi. etik tor bo'lsa kadok kilishi, oyok panjalari shilinishi mumkin. Natijada jaroxatlangan yerga zaxarli kimyoviy moddalar tushib, uni zaxarlashi mumkin. Kiyim kechak katta bo'lsa xam ishlash xavfli bo'ladi, chunki kiyimning yengi va yokasidan zaxarli ximikatlarning changi, zarrasi tushadi vat yeri orkali kishi organizmiga o'tishi mumkin. shaxsiy ximoya vositalari xamisha ozoda bo'lishi kerak.

Simob organik preparatlar bilan zaxarlangan kishining ogzida metall ta'm

paydo bo'lib, boshi ogriydi, ogzidan so'lak okadi, ko'ngli bexuzur bo'lib, kayt kiladi. aksariyat xushidan ketib koladi. Simob preparatlari bilan zaxarlangan kishining korni sanchib ogriydi. ichiketadi, milki shishadi va konab turadi. Kishi tez-tez chankaydi, keyinchalik oyok-ko'li bo'shshadi. Suvli ammiakni soladigan mashina va transport vositalari xavfsizlik choralariga ka'tiy rioya kilingan xolda maxsus ustaxonalarda ta'mirlanadi. Suyuk ammiak uchun rezervuarlarni sinovdan o'tkazish va texnik xujjatlashtirish, yukori bosim ostida ishlaydigan ishchilarnikidek olib boriladi. Sisterna ichini nazoratdan o'tkazish yoki ichida birorta ishni bajarish ikki ishchi bilangina olib boriladi(birinchi ishchi extiyotlik uchun), ular kombinzonlar, rezina etiklar va shlangli gaz nikoblari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Xar bir korxonada bo'lgani kabi fermer xo'jaliklari boshkaruv binolarida xam elektr energiyasi manbalaridan keng foydalaniladi. elektr energiyasi manbalaridan va bevosita u Bilan ishlaydigan xar xil asboblardan foydalanish jarayonida ishchi-xodimlar elektr xavfsizligi koidaloriga rioya kilishlari lozim. Jumladan elektr energiyasi Bilan ishlaydigan asbob uskunalarlarda ular ximoyaviy yerga ulash bilan ximoyalangan bo'lishi zarur.

Shu bilan birgalikda ishchi xodimlarni tashki zararli omillardan ximoya kilish shaxsiy muxofaza vositalari bilan ta'minlanadi. Bularga ko'zoynaklar, ko'lkoplap, maxsus kiyimlar, maxsus bosh kiyimlari kiradi. YUkoridagi barcha ishlar korxonada mexnat muxofazasi muxandisi (texnigi) tomonidan nazorat kilinishi kerak.

### **Yongin xavfsizligi**

Yongin va portlash bizning ishlab chikarishimizga iktisodiy zarar yetkazib kolmasdan, balki insonlarni baxtsiz xodislalarga olib keladi. natijada u ishlab chikarish kuvvatlariga. bino inshootlarga tovar moddiy boyliklarga zarar yetkazadi.

Fermer xo'jaliklarida kishlok xo'jalik ekinlarini, jumladan gallani yongindan saklash eng asosiy masalalardan biridir. Galla maydoni atrofida gulxan yokmaslik, maishiy binolar (oshxonalar) sifatida foydalanmaslik makadga muvofikdir.

Mashina mexanizmlarda yokilgi tomib turishiga yo'l ko'yilmaydi.

Mexanizmlarning sovitish sistemasi yaxshi ishlashi lozim, sovituvchi suyuklik okishiga yo'l ko'yilmaydi. Mexanizmlarning moylash tizimidan moyning okishiga yo'l ko'yimaslik kerak. Agarda bunday xolat mavjud bo'lsa uni tezdin tuzatish choralari ko'rilishi lozim. Sovuq kunlarida texnikalarning dvigatellarini olov yokib kizdirish ka'tiyan mann etiladi.

Dala sharoitida xam texnikalarni ta'mirlashga to'g'ri keladi. Bunday xolatlarda maxsus tayyorlangan maydonchalarda va xududdagi mavjud binolar va bostirmalardan foydalaniladi. Bunda joy avvalo tayyorlanadi, begona predmetlardan tozalanadi. YOngin xavfi bor predmetlar yo'kotiladi, tozalanadi va boshkalar.

Yukorida keltirilgan xoatlarni keltirib chikarmaslik uchun binolarda yonginni o'chirish moslamalari ko'zda ko'rinadigan joyda joylashtiriladi va unga zarur bo'lgan uchirish moslamalari (suv, tuprok va boshk.) joylashtiriladi. Joylarda yongin xavfsizligiga rioya kilish uchun targibot tashvikot vositalari o'ranitiladi. SHu Bilan birgalikda yonginni o'chirish moslamalari yilda bir morotaba texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

### **Birinchi tibbiy yordam.**

Massivdagi fermer xo'jaliklari ishchi xodimlari ishlab chikarishda bir kator ishlarni bajarayotganda turli xil tan jaroxati olishlari mumkin. bunda ishchilar sinish, lat yeyish, elektr zarbasidan jaroxatlanish, zaxarli xashorotlardan zararlanish kabilar bilan jaroxatlanadi. Ularga joyning o'zida birinchi tibbiy yordamko'rsatish talab etiladi.

Inson organizmida suyaklarning sinishi yoki chikishini shu joyning ishib ketishi, odatiy bo'lmagan kiyshayish va ogrik tufayli aniklash mumkin. Bunday paytda birinchi vazifa shikastlangan bo'ginlarni ko'zgalmaydigan tinch xolatini saklash kerak. Lat yegan joyni yaxlatish zarurdir. Bu tadbir ogrikni koldirish bilan birgalikda zarar yetmagan joylarga xam putur yetkazmaslikni ta'minlaydi vash u o'rinda bemorni kasalxonaga olib borishda yordam beradi. Bunday xolatni saklash singan yoki chikkan joyga faner, karton shinalar ko'yish yordamida ta'minlash mumkin. SHinalarni ko'yish va uni boglash vaktida imkon kadam lat yegan joyni

avvalgi xolatini o'zgartirmaslikka xarakat kilish kerak.

Qovurg`alar singan xolatda yo'talish, nafas olish va xarakat natijasida kattik ogriklar seziladi. Og`riklarni oldini olish uchun bemorning ko'krak kismini bint yoki sosik yordamida nafas chikargan paytda boglab ko'yish kerak. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, jaroxatlangan joyga yod surtish yoki issik kompress ko'yish kat'ian mann etiladi. Chunki bu xolat ogrikni yanada kuchayishiga olib keladi. Qo'l suyaklari singan hollarda boshqa hollar kabi shinadan foydalaniladi. Agar shina bo'lmay qolsa qo'l bo'yinga osib qo'yiladi va bint yoki mato bilan gavgavdaga mahkam bog`lab qo'yiladi.

**3-BOB. «O`RTA OSIYO» MASSIVIDA YERDAN FOYDALAUVCHILARNI  
RO`YXATGA OLISH VA KADASTR RAQAMLARINI  
SHAKLLANTIRISH.**

### **3.1 «O`rta Osiyo» massivida yerdan foydalanuvchilarni ro`yxatga olish**

«O`rta Osiyo» massivida yer uchastkalariga bo`lgan huquqlarni ro`yxatga olish ular joylashgan hududdagi hududiy-regional organlar (tuman yer resurslari va ko`chmas mulk kadastr xizmati) tomonidan amalga oshiriladi.

Aniq bir yer uchastkasiga yuridik yoki jismoniy shaxsning huquqini boshlang`ich tarzda belgilash bo`yicha harakat-huquqning vujudga kelishidir:

- umrbod merosiy egalik huquqi;
- doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi;
- mulk huquqi;
- ijara huquqi.

Faqatgina huquq turini yoki yerdan foydalanish xarakterini, yer uchastkasining chegarasini o`zgarishi bo`yicha harakat - huquqining o`zgarishidir:

- foydalanish maqsadi;
- umumiy maydoni;
- yer toifasi;
- huquq turlari;
- mulkchilik ulushining nisbatlari.

Huquqni bir sub`ektdan ikkinchisiga o`tishi – yer uchastkasiga bo`lgan huquqni bitta yuridik yoki jismoniy shaxsdan boshqasiga o`tishi bo`yicha harakatlardir:

- yer uchastkasini oldi-sotdi, almashish, sovg`a qilish, meros, renta;
- bino va inshootlarni oldi-sotdi, almashish, sovg`a qilish, meros, rentasi, uy-joyni umrbod tutib turish uchun ajratib olish.

Yuridik va jismoniy shaxslarni yer uchastkalariga bo`lgan huquqlarini quyidagi hollarda bekor qilish bo`yicha harakatlar huquqlarni to`xtatilishidir:

- o`z hohishi bo`yicha voz kechganda;
- yer uchastkasiga bo`lgan foydalanish yoki ijara muddati tugaganda;

- yuridik yoki jismoniy shaxslarning faoliyati to'xtaganida;
- ijaraga olish shartnomasi bekor qilinganda yoki bekor bo'lganda;
- yer uchastkasi yer qonunlarida nazarda tutilmagan tartibda olib qo'yilganda;
- Davlat yoki jamoatchilik ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda (sotib olinganda).

«O`rta Osiyo» massividagi yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish uchun arizalar va hujjatlarni qabul qilish reestri quyidagi tartibda to'ldiriladi.

11-jadval

**Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishda  
arizalar va hujjatlarni qabul qilish reestri**

№	Arizachin i nomi	Ariza va hujjatlar qabul qilingan sana	Yer uchastkasi ning joylashgan manzili	Ro'yxatg a olish predmeti va hujjat- lar nomi	Xizmat haqini to'langanligi haqida belgi	Izoh
1	2	3	4	5	6	7
1	Abduali Valiyev	15.02.2004 y.	Buxoro viloyati Buxoro tumani, «Qavla Maxmud» QFY	Fermer xo'jaligi, yer uchastkal arini ro'yxatga olish reestri	To'langan	

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish organlari arizalarni ko'rib chiqishga qabul qilgan kundan boshlab 10 kun ichida amalga oshiriladi. Ro'yxatga olish davrida maxsus davlat registri yuritiladi

Davlat registrida yer uchastkasiga bo'lgan huquq ro'yxatga olinganidan so'ng ro'yxatga olish organi tomonidan maxsus guvohnoma tuziladi.



## Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat registri

142	YOzuv №
	Yer uchastkasining kadastr raqami
G`aybullo Bozor	Yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi
Buxoro tumani «Qavla Maxmud» QFY	Yer uchastkasining pochta raqami
Ijara	Yer uchastkasining huquq turi
Guvohnoma	Huquqni belgilay-digan hujjatning nomi, qachon va kim tomonidan berilgan
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish	Yer uchast-kasi-ning mohiyati
	Yer uchastkasiga bo'lgan huquqdagi cheklanishlar
	Servitutlar
	Yer uchastkalari og'irlik markazining kordinatalari
52.60	Maydon, ga
	64,0 ga bo'lgan kadastr bahosi
	Bino va inshootlar to'g'risida ma'lumot-ar
3	Soliq zonasi, koeffitsentlar
Yo'q	Munozarali masalalar
№1 -Tom, 43 bet	Kadastr hujja-tining tartib raqami

A. Asosiy ro'yxat

Ro'yxatga olishni amalga oshirgan shaxsning imzosi \_\_\_\_\_

V. Joriy ro'yxat

Ro'yxatga olishni amalga oshirgan shaxsning imzosi \_\_\_\_\_

### **3.2. Massiv hududida kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi**

Yer uchastkalariga kadastr raqamlarini berilishi ularni ro'yxatga oluvchi organlarning yer uchastkalarga, imorat va inshootlarga yagona kodlash tizimi asosida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1998 yil 22 yanvardagi «Jismoniy shaxslarga egalik huquqi tegishi uchun imorat va inshootlarni inventar baholash ishlari olib borilishi xaqida» 35-sonli qarori asosida amalga oshiriladi. Yer uchastkasi yagona ob'ekt xisobida bo'lgan davrda kadastr raqami o'zgarmaydi va saqlanib qoladi.

Yer uchastkalarining chegaralarini tasvirlash va holatini hisobga olish uchun 1:2000 dan 1:25000 gacha bo'lgan davlat standartlarida qabul qilingan masshtablarda kadastr kartalari yuritiladi. Kadastr kartalarida yer uchastkalarining kadastr raqamlari xam huquqiy rasmiylashtiriladi.

Kadastr zonalari, massivlari va mavzellarini kadastr bo'yicha bo'lish va shakllantirish vaqtida ularning chegaralari, odatda shaharlar, shahar tumanlari, qishloqlar, ovullarning ma'muriy chegaralariga to'g'ri keladi. Ma'muriy chegaralar o'zgarganda, kadastr bo'yicha bo'linish sxemasiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Yer uchastkasining kadastr raqamini shakllantirish yer uchastkasi ko'chmas mulk ob'ekti sifatida shakllantirilgan va uning chegaralari tuman (shahar) navbatchi indeksli kadastr xaritasi (rejasi) ga kiritilgandan keyin boshlanadi.

Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi yer uchastkasining kadastr raqami  
20:02:01:02:02:0002.

Bu yerda:

20 – mintaqqa raqami

02 – Buxoro tumani raqami

01 – kadastr zonasining raqami

02 - kadastr massivi raqami

02 – kadastr mavzesi raqami

0002 – kadastr mavzesi chegarasidagi yer uchastkasining raqami.

2. Bino va inshootlarning kadastr raqami:

**20:02:01:02:02:0002:0008**

Bunda:

**20:02:01:02:02:0002** - yer uchastkasini kadastr raqami

**0001**– yer uchastkasi chegarasidagi bino va inshootlarning raqami.

3. Bino va inshootlarni bir qismini kadastr raqami:

**20:02:01:02:02:0002:0001:002**

**20:02:01:02:02:0002:0001**– bino, inshootlarni kadastr raqami.

**002** – Bino inshootlarning bir qismini kadastr raqami (asosiy bino va inshootlarda).

Kadastr rakamlarini xisobga olish jurnalini rasmiylashtirish kuyidagi jadvalda keltirilgan.

13-jadval

Kadastr raqamlarini hisobga olish journali  
(«Diyora» fermer xo'jaligi yer uchastkasi misolida)

Yer uchastkasi raqami	Bino, inshoot raqami	Bino, inshootning bir qismi	Yer uchastkasi, bino, inshootlar va qo'chmas mulk ob'ektlarining manzili yoki pochta manzili, mulkdorning F.I.SH. (mulkdor foydalanuvchi).	Kadastr zonasi kartasining indeksli varagi nomenklaturasi	Yer uchastkalari uchun tom raqami, betlari va davlat reestri	Kadastr raqami berilgan muddat va ro'yxatlovchining F.I.SH.	I Z O X
-----------------------	----------------------	-----------------------------	--	---	--	---	------------------

1	2	3	4	5	6	7	8
0002	0001	002	«G`aybullo Bozor» fermer xo`jaligi raxbari  Aliyev K.I.	20:02:01:02 :02: :0002  2	№1- Tom, 43 bet, 1361	03.03.20 11 y. Olimov Akmal	

Bino yoki inshootning bir qismi deb muayyan sathda joylashgan, asosiy bino yoki inshootdan farqlanuvchi huquqiy maqomga (xonadon, bino yoki bino inshootning boshqa alohida qismi) ega bo'lgan alohida qismi hisoblanadi. Bino yoki inshootning kadastr raqami ular joylashgan yer uchastkasi chegarasidagi navbatdagi tartib raqami sifatida shakllantiriladi. Bino va inshootlar bir qismining kadastr raqami asosiy bino yoki inshoot chegarasidagi navbatdagi tartib raqami sifatida shakllantiriladi. Yangidan suratga olish (tuzatishlar kiritish) ro'yxatga olish, yangi kadastr xarita (reja) larini tayyorlash vaqtida yer uchastkasi, bino va inshootning (ularning bir qismidan tashqari) kadastr raqamini tashkil etuvchi majburiy elementlari o'zgartirilmaydi. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda yukorida nomlangan yo'riqnomadan asosiy uslub sifatida foydalanildi.

### **3.3 «O`rta Osiyo» massivi hududida mavjud fermer xo`jaliklarida kadastr raqamlarini shakllantirish**

«O`rta Osiyo» massivi hududida 525 ta tomarqa xo`jaliklarini, 10 ta begona yerdan foydalanuvchilarni kadastr raqamlari quyidagi jafvalda keltirilgan.

14-jadval

Massivdagi begona yerdan foydalanuvchilarning kadastr raqamlari

T.r.	Nomi	Maydoni	Kadastr raqami
	Tomorqa yerlari	56,2	20:02:01:02:01:0001:0001-296 20:02:01:02:02:0002:0096-352

			20:02:01:02:02:0001:0052-525
	Avtomobil transport yerlar	2,5	20:02:01:02:02:0003:0028
	Qabrsitonlar	1,2	20:02:02:02:02:0003:527
	Maktab	2,1	20:02:01:02:02:0004:0001:001
	SP «Kobul Buxoro-tekistl to'qimachi	21,7	20:02:02:02:02:0005:00030
	Avtomobil tarnsporti yerlari	1,2	20:02:02:02:02:0001:0026
	AYOKSH	1,1	20:02:01:02:02:0006:0312
	Kollej	3,0	20:02:01:02:02:0007:0132
	Gisht zavodi	2,2	20:02:01:02:02:0008:0133
	Suv ch.	0,2	20:02:01:02:02:0009:0534
	Gaz o'tkazish yo'li	2,8	20:02:01:02:02:0010:0535

Yuqorida aytganimizdek «O`rta Osiyo» massivi hududida 14 ta fermer xo'jaliklari muvjud bo'lib ularning kadastr raqamlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

15-jadval

Fermer xo'jaliklarning kadastr raqamlari

T.r.	Fermer massivlari nomi	Umumiy maydoni, ga	Kadastr raqami
1	G`aybullo Bozor	52,60	20:02:01:01:02:0011
2	Sobir Omon Fayz	88,37	20:02:01:01:02:0012
3	Rustam Mardon	57,79	20:02:01:01:02:0013

4	Arbob Husen	76,79	20:02:01:01:02: 0014
5	Kosim Baxtiyor	97,81	20:02:01:01:02: 0014
6	Arbob Botir	59,98	20:02:01:01:02: 0015
7	Zirabot IGX	111,01	20:02:01:01:02: 0016
8	Dilnoza O`g`li Abduxalil	595,08	20:02:01:01:02: 0017
9	Odilshoh	359,40	20:02:01:01:02: 0018
10	SafulloBobo Ziraboti	57.40	20:02:01:01:02: 0019
11	Erkin Yusuf	77,60	20:02:01:01:02: 0020
12	Bolta Bobo	61,12	20:02:01:01:02: 021
13	Xurshid Dildor Fayz	1487.8	20:02:01:01:02:0022
14	Mirza Nur	4,62	20:02:01:01:02: 020023
15	Sulton Said	8.15	20:02:01:01:02: 0024
16	Istam SHarofat Bog`i	5.21	20:02:01:01:02: 0025
17	Suxrob Lola	7.25	20:02:01:01:02: 0026
18	Amon Axmad	6.99	20:02:01:01:02: 0027
19	Amrillo Roziq	8.41	20:02:01:01:02: 0028
20	Abbos Rayim	78.54	20:02:01:01:02: 0029
21	Rajab Turob	1.05	20:02:01:01:02: 0030
22	Fayzullo Bobo-97	9.45	20:02:01:01:02: 0031
	Jami	4764.9	

Ushbu jadvaldan ko`rinidagi massivdagi fermer xo`jaliklarining aksariyati massivning birinchi mavzesida joylashgan.

Kadastr raqamlarini berishda massivning zonalari, mavzelari, yer

uchastkalari va yer uchastkasidagi bino inshootlarning joylashgan o`rinlari inobatga olinishi lozim.

## XULOSA

Mamlakatimizdagi mavjud yer resurslarini yerdan foydalanuvchilar o`rtasida taqsimot qilishda yer uchastkalarini ro`yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish o`rganib chiqildi. Buxoro tumanidagi «O`rta Osiyo» massiv hududida yer uchastkalarining huquqiy holati, ulardan foydalanish darajasi, yer uchastkalarini ro`yxatga olish ishlari o`tkazildi. eng muhim boyligimiz hisoblangan yer resurslarimiz qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi va xalq xo`jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirishni makoniy bazisi hisoblanadi.

Yer uchastkalarini ro`yxatlash soliq tizimini tartibga solish, yerdan foydalanishni nazorat qilish ishlarini samaradorligini oshirish ish natijasida aniqlanadi. Yer hisobini yuritish muammosini muvaffaqiyatli hal qilish, eng avvalo, uni ob`ekti va sub`ektini to`g`ri belgilashga bog`liqdir.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o`tish va rivojlangan davlatlar qatoriga qo`shilishi ko`p jihatdan qishloq xo`jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo`lgan yer resurslaridan jumladan sug`oriladigan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi «O`rta Osiyo» massiv hududida ro`yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish ishlarini bajarishga bag`ishlangan. Bugunga kelib yerlarni sifat iqtisodiy baholashlar ayrim sohalarda zarur barcha ma`lumotlarni olish uchun yetarli bo`lmay qoldi. Bunga respublikamizda bo`layotgan qishloq xo`jaligidagi iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqib yondashuv mumkin.

Massiv xududida joylashgan barcha yerdan foydalanuvchilarning yer uchastkalarini ro`yxatga olish natijalari bo`yicha ularga berilgan kadastr raqamlarini shakllantirildi. Jumladan, tomorqa uchastkalari, tashkilot, korxonalar, muassasalar, fermer va massiv bo`yicha har bir yer uchastkasiga Nizomga asosan kadastr raqamlari berildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (asosiy qonuni). T.: O'zbekiston, 1999
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari 19 son, T.:Adolat,1998
3. O'zbekiston Respublikasi korxonalar va tashkilotlaridagi qishloq xo'jalik yerlarida qishloq xo'jalik ekinlari va yer turlari maydonlarini instrumental o'lchovi bo'yicha ko'rsatmasi. T.: 2001
4. O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini joriy qilish to'g'risida. 1998 yil 31 dekabrda 543-sonli Vazirlar Maxkamasi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Davlat yer kadastrini to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari 19 son, T.:Adolat,1998
6. Karimov I.A. Ozod va obod vatan qolsin erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000
7. Bobojonov A.R, Denisov V.V, Raximov e.R. Sug'oriladigan yerlardan foydalanish va ularni baholash. T.: 1992
8. Vremenniy ukazaniya po sostavleniyu i oformleniyu zemelno-kadastrovix kart i planov. RD-34-0212-00. Tashkent, 2002-22 str.
9. Yer va qonun. Usmonov M.B. Adolat, 1994 yil.
10. Yer konunchiligini buzganligi uchun Yer resurslaridavlat qo'mitasi organlari tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortishga oid vaqtinchalik yo'riqnomasi. 1999 yil 11 maydagi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.
11. Yer munosabatlarini tartibga solish. Xayot va qonun. № 1, Ayubov U.T. 1999 y
12. Yer munosabatlarini tartibga solishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1 –jild. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi. T.:2000

13. Yer xukuki. Nigmatov A. Buxoro islom universiteti. 2001 y.
14. Yerlardan samarali foydalanishni oshirish to'g'risida. 1994 yil 24 noyabrdagi Prezident Farmoni.
15. Qishloq xo'jaligida isloxlarni chuqurlashtirishga doir qonun va meyoriy hujjatlar to'plami. Tom-I. «SHarq» nashriyoti matbaa konserni bosh taxririya. Buxoro, 1998, -416 bet.
16. Qurbonov e.Q, Bobojonov A.R, Raxmonov Q.R. Yer kadastri asoslari. O'quv qo'llanma. T.: TTEST, 1999
17. Metodicheskiye Rekomendatsii o poryadke provedeniya rabot po pereraspredeleinyu zemelnogo fonda reorganizuyemix selskoxozyaystvennix predpriyatiy v fermerskiye xozyaystva. Tashkent, 2002, -8 str.
18. Sistema zemelno-kadastrovoy informatsii. Uchebnoye posobiye. A.S.Chertovitskiy. Tashkent, 1989, -76 str.
19. Tuman (shahar) yer kadastri kitobini yuritish bo'yicha ko'rsatma. RX-13-020-00. Buxoro, 2000, -30 bet.

Internet saytlari

[www.kadastr.uz](http://www.kadastr.uz)

[www.gkz.uz](http://www.gkz.uz)

[www.uz](http://www.uz)


[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

# **ILOVALAR**



# ТАРҲИ

1-қисм



**Чегаровий ерлар изоҳномаси**

- A ден B оғчи А Широк қолли асрият эркинлик эркини қирғи 1 м
- B ден B оғчи "Бухоро" ширкат эркинлик қирғи 1 м
- B ден A оғчи "Ўзбекистон" ширкат эркинлик қирғи 1 м

Мақолаб 1: 10 000  
 0 100 200 300  
 Метр





